

SHE'RIYAT DURDONALARI

MUHAMMAD

84(58)6  
y4-91

YUSUF

Aytilmagan  
qo'shiqlarim

*Yuragimning tagidasiz, yalpizdan past,  
Goh o'ylayman – shundoq qo'lim uzatsam bas.  
Yuzingiz bir ko'rmay sira o'lgim kelmas –  
Tug'ilmagan qo'shiqlarim, sizdan uzr!*

• KUYGA SOLINMAGAN SHE'RLAR •



84/50/16  
Yh-91

SHE'RIYAT DURDONALARI

# MUHAMMAD YUSUF

Aytilmagan  
qo'shiqlarim

*She'riy to'plam*



Toshkent  
2019

UO'K: 821.512.133-1  
KBK 84(5O')6  
Yu-91

O'zbekiston xalq shoiri Muhammad Yusufning she'rlarini o'qimagan kitobxon topilmasa kerak. Bu ohangdor she'rlarda xuddi sizning dardlaringiz ifoda etilgandek tuyuladi. Ehtimol, shuning uchundir, bu she'rlar hech birimizni befarq qoldirmaydi.

Ushbu kitobdan iste'dodli shoirning hali nashr etilmagan she'rlari ham o'rin olgan.

Mazkur to'plam Muhammad Yusuf she'riyati muxlislari va san'atkorlarimiz uchun ajoyib tuhfa bo'ladi, degan umiddamiz.



ISBN 978-9943-5706-0-3

© Muhammad Yusuf.  
© „Ziyo nashr“ nashriyoti, 2019.



## BIZDAN OZOD VATAN QOLADI

O'tar necha bahorlar gulgun,  
Necha umr kuzlari kechib.  
Zamin uzra saf tortib bir kun  
Biz ketarmiz qushlarday ko'chib.

Bir bebaho ma'dan qoladi,  
Bizdan ozod Vatan qoladi.

Bizning manzil oq-oydin sahar,  
Oftob sari yo'limiz ravon.  
Millat uchun kerak bo'lsa gar,  
Ming bir fido bo'lmasa bu jon —

Jon chekmasang, qaydan qoladi,  
Bizdan ozod Vatan qoladi.

Odam bilan ulg'ayar makon,  
Dunyolarga doston bo'ladi.  
Erkli elning go'dagi sulton,  
Sultoni mard inson bo'ladi.

Davri dun hammadan qoladi,  
Bizdan ozod Vatan qoladi.

Bug'doy sepsang bug'doying qiyg'os,  
Arpa eksang, arpasin olar.  
Avlodlarga bizlardan meros,  
O'zbekona oriyat qolar.

Erkimiz — gulbadan qoladi,  
Bizdan ozod Vatan qoladi.



\* \* \*

Na yerda gavharsan, na ko'kda hilol,  
Xorsan, g'aribsan bir maskan bo'lmasa.  
Boshingda soyabon majnuntol misol,  
Senga parvona bir Vatan bo'lmasa.

Sensiz saholarda sarobdir yo'lim,  
Tuproq'i ko'zimga to'tiyo elim!

Qatorda yomoning bo'lmay, iloyo,  
Sening nazaringdan qolmay, iloyo,  
Kiyik bolasidek nochor jovdirab,  
To'rt tomon yugurib-yelmay, iloyo.

To'ning etagidan tushmasin qo'lim,  
Tuproq'i ko'zimga to'tiyo elim.

Sening ulug'liging, ustivorliging,  
Bizni bilmaganga bo'lsin yorlig'ing.  
Qanday bo'lsang shunday azizsan menga,  
Mening davlatim – bu sening borliging.

Sen duo qilsang bas: „Kam bo'lma, o'g'lim“,  
Tuproq'i ko'zimga to'tiyo elim.

Abaddir yashnashi bir yashnagan bog',  
Qadim sen o'tqazgan nihol, novdalar.  
Dunyoga ko'z-ko'zlab tiklamoqda, boq,  
Temurning davlatin temurzodalar.

Qaytgani rost bo'lsin bu gulshan so'lim,  
Tuproq'i ko'zimga to'tiyo elim!







## VATAN MADHI

Kinga dasht boshpana, kimgadir gulzor,  
Har kimning sig'ingan sajdagohi bor.  
Har hovuch tuprog'i ko'zga to'tiyo,  
Biz uchun qadrdon shu aziz diyor.

O'ping, ko'zingizga surting tuprog'in,  
Har so'zin muqaddas duodek seving.  
Qadang yuraklarga millat bayrog'in  
Vatanni Najmiddin Kubrodek seving.

Ko'ngilning gavhari shu aziz maskan,  
Fidodir hamisha unga tan-u jon.  
Otalar himmatin yodi mash'ali,  
Onalar oq suti hurmati – Vatan.

O'ping, ko'zingizga surting tuprog'in,  
Har so'zin muqaddas duodek seving.  
Qadang yuraklarga millat bayrog'in,  
Vatanni Najmiddin Kubrodek seving.



## BOLAJONLAR

Xazon bilmay gurkirasin ko'ngil bog'ing,  
Yosh ko'rmasin qoramayiz gul yanog'ing.  
O'zbek otli mard bir millat farzandisan,  
Xalq otangdir, xalq onangdir, xalq panohing.

Hech muhtojlik ko'rmayin o's, bolajonim,  
Ey qoraqosh, ey qorako'z bolajonim!

Erkli bo'lgin, erkingni sen siyla avval,  
Shu bir so'zga jonni fido ayla avval.  
Kuch bilakda emas, bilgin, kuch – yurakda,  
Sen yurakka Vatanni jo ayla avval.

Hayot-mamot shu bitta so'z, bolajonim,  
Ey qoraqosh, ey qorako'z bolajonim!

Omon bo'lsin elning jasur o'g'lonlari  
Abdullasi, Erkin, G'afur – arslonlari  
Qatorida shunday nori bor ekanki,  
Qal'asi but bo'lgay, butun qo'rg'onlari.

Norg'ul bolam, navqiron bo'z bolajonim  
Ey qoraqosh, ey qorako'z bolajonim!



## QUYOSHISTONIM

Manglayimga bitgan yer,  
Bolaligim o'tgan yer.  
Tulpor bo'lib toyinsam,  
Menga yelka tutgan yer.  
Qay manzilga oshiqib,  
Men ostona hatlasam,  
Otam bo'lib kuzatgan,  
Onam bo'lib kutgan yer.

Ko'hinurdan ko'hligim  
Onam – O'zbekistonim.  
O'zbekman – o'zbekligim  
Mening oliy unvonim!

Sen borsanki, qaddim tik,  
Panohim, soyabonim.  
Sen borsanki, bag'rim but,  
Butundir burda nonim.  
Tirikligim sen bilan,  
Suyukligim sen bilan.  
O'zing ulug' bo'stonim,  
O'zing ulug' shohonim –

Ulug' tog'day ulug'im,  
Qal'am O'zbekistonim,  
O'zbekman – o'zbekligim  
Mening oliy unvonim!





## CHAMANISTONIM

Ona yurtim – O‘zbekistonim,  
Poylaringga sadqa bu jonim.  
Dunyolari ichra bir dunyo,  
O‘xshashi yo‘q chamanistonim.

Yuragimda bir orzu-havas –  
Senga sodiq o‘g‘il bo‘lsam bas!

Beshigimni tebratgan o‘zing,  
Alla aytib uxlatgan o‘zing.  
Uydan chiqsam ostona hatlab,  
Kutgan o‘zing, kuzatgan o‘zing.

Yuragimda bir orzu-havas –  
Senga sodiq o‘g‘il bo‘lsam bas!

Kezib chaman chorbog‘laringni,  
Ichdim zilol buloqlaringni.  
Erka bo‘lib, erkingni kuylab,  
Oqlay deyman ardoqlaringni.

Yuragimda bir orzu-havas –  
Senga sodiq o‘g‘il bo‘lsam bas!

Ona yurtim – O‘zbekistonim,  
Poylaringga sadqa bu jonim.  
Dunyolari ichra bir dunyo,  
O‘xshashi yo‘q chamanistonim.

Yuragimda bir orzu-havas –  
Senga sodiq o‘g‘il bo‘lsam bas.



## YANGI YIL KECHASI

Ko'ngil ma'yus tortdi yilning so'ngida,  
Bilmam, nimang bilan sehrlading, qor.  
Bugun kuppa-kunduz ko'zim o'ngida,  
Yana bir yoshimni o'g'irlading, qor.

Qirqinchi qasrimga o'taymi endi,  
Kechagi yoshligim ertakmi endi?

Bahorim yetgudek, qo'lim uzatsam,  
Yetolmay dilimni ne deb yupatsam.  
Laylakqor, azizim, g'alat bayram bu –  
Kulib kuzatsammi, yig'lab kuzatsam.

Dardim jim ichimga yutaymi endi,  
Kechagi yoshligim ertakmi endi.

So'rsang, sevinchimdan o'kinchim ko'proq,  
Sendan-da kumushroq, sochimdagi oq.  
Yilim kelmay turib, yilim ketmoqda,  
Ko'zda tabassum-u kiprikda titroq.

Men ham sal shoshdim-da, qaytaymi endi,  
Kechagi yoshligim ertakmi endi.  
Yangi yil,  
Kelaver qanday kelsang ham,  
Kimlar yetdi senga, kimlar yetmadi.



Sen yangi yo'ldoshsan, sen yangi hamdam,  
Yo'qlab kelganingni o'zi bir bayram.

Qulog'ingga bir gap aytaymi endi,  
Kechagi yoshligim ertakmi endi!





## O'ZBEKISTON POLVONLARIGA

Maydon uzra davra qurar,  
O'zbek kurashsa.  
Tog'larni yelkada surar,  
O'zbek kurashsa.  
O'zbeginning kurashi ham  
O'ziday halol –  
Dast ko'tarib yerga urar,  
O'zbek kurashsa.

Pahlavonlar, yurt maydonga  
Yo'llasin sizni.  
Alpomishlar ruhi doim  
Qo'llasin sizni.

Ehrom bo'lsa – siz ham ehrom  
Aylang polvonga.  
G'irrom bo'lsa – soqqa qilib  
Oting osmonga.  
Oq yaxtakli, oq tilakli  
Oq niyatlarim,  
Hur Vatanning shuhratini  
Yoying jahonga.

Polvonlarim, yurt maydonga  
Yo'llasin sizni.  
Pahlavon Mahmudlar ruhi  
Qo'llasin sizni!



O'zbekiston zar undirar  
Dehqon o'lkadir,  
Dashtida ham duri gavhar,  
Bo'ston o'lkadir.  
Bellarida belbog'i bor  
O'g'lonlarining,  
Cho'roni ham, sultoni ham  
Polvon o'lkadir.

Botirlarim, yurt maydonga  
Yo'llasin sizni,  
Ajdodlarning ruhi doim  
Qo'llasin sizni.







## XORIJDAGI O'ZBEK QO'SHIG'I

Qarog'ingman qanotlari qayrilgan,  
Quhog'ing och qarog'ingga, Turkiston.  
Yurt qadrini bilar yurtidan ayrilgan,  
Aytmog'im bor qulog'ingga, Turkiston.

Olma oftob misol siylab mehring-la,  
Junjikkanda isindim qalb mehring-la.  
Simob bo'lib singib ketay bag'ringga,  
Qaytmog'im bor quhog'ingga, Turkiston.

Olib ket, deb qushlarga yolvorayin,  
Dardim aytib o'zingga dil yorayin.  
Kelgin, desang o'tlar kechib borayin,  
Yuzim bosib dudog'ingga, Turkiston.

Yuragimdan boshlanadi izlaring,  
Dimog'imda qolgan rayhon islaring.  
Tushlarimda Toshkentlaring, Chustlaring,  
Zorman bir kaft tuprog'ingga, Turkiston.

Yalangoyoq dashtlaringda chopmadim,  
Kaftim kuyib tandirda non yopmadim.  
Dunyo kezib teng-u taraf topmadim,  
„Shoshmaqom“-u „Ushshoq“ingga, Turkiston.

Ajdodlarim ardoqlagan maskansan,  
Beshigimga bir payt tumor osgansan.  
Jonimdan joy olgan aziz Vatansan,  
Ko'z tegmasin xush chog'ingga, Turkiston!



## ONAJONLAR

Sahardanoq charxpalakday aylanasiz,  
Bir ish bitsa boshqasiga shaylanasiz.  
Onajonim, ayting qachon dam olasiz?  
Buncha ishga qachon yetar qurbatingiz?  
Onajonim, qachon bitar mehnatingiz?

Qo'lingizni o'psam nonning hidi kelar,  
Qo'ying endi, mehribonim, endi bo'lar.  
Kelingiz bolasini o'zi belar,  
Shuncha bo'lar bir kelinga xizmatingiz,  
Onajonim, qachon bitar mehnatingiz?

Kun botmay hech o'ringizga yotmadingiz,  
Oy botguncha bog'da olma qopladingiz.  
Olma pishib, tugab ketdi totmadingiz,  
Bas qilaylik, ishni endi to'xtangiz,  
Onajonim, qachon bitar mehnatingiz?

Do'stlarim-a, qo'yinglar bu dunyolarin,  
Onasizga tutmaydi u ziyolarin,  
Tirigida olib qoling duolarin...  
Afsus chekmang erta yetmay fursatingiz,  
Elga xizmat – onangizga xizmatingiz.



## MUHAMMADGA MAKTUB

Qo'ling gulga aylansin qiz quchganda,  
Laxcha cho'g' ham ho'plagin suv ichganda.  
Sev, yuraging karvon bo'lib ko'chganda,  
Ishqdan olis sahro bormi, birodar.

Oshiqqlarning orasida hakam yo'q,  
Darding aytsang, eshitguvchi odam yo'q.  
Ishq dardiga ishqdan bo'lak malham yo'q,  
Bundan og'ir savdo bormi, birodar.

Qayon boshing urma, bu dunyo bir kam,  
Birovga ber, o'zing muhtoj bo'lsang ham.  
O'zga g'ami o'ldirmasa, o'lsang ham,  
Hayotingda ma'no bormi, birodar.

Boq bu falak ishlariga o'nlanib,  
Kimlar yashar bir joni ming to'g'ralib,  
Kimlar yashar qobig'iga o'ralib,  
Dardsizdek bedavo bormi, birodar.

Lochin ko'kda netar, ko'zi o'tmasa,  
Sindir qalamingni, so'zi o'tmasa.  
Vatan desang, o'pkang to'lib ketmasa –  
She'r yozishga balo bormi, birodar!



## OTAJON

Otang bo'lsa boshingda ko'zing yoshi ko'llamas.  
Hech qaysi do'st odamni otasidek qo'llamas.  
Otasi bor eshikka yo'lbars yaqin yo'lamas.

Bilmagandim siz tirik kezlaringiz, otajon,  
Endi qaydan topayin izlaringiz, otajon.

Kechagina qo'lidan mayiz-turshak yer edim,  
Kecha ko'rolmaslarga toshingni ter, der edim.  
Ortingizda ojizman, yoningizda sher edim.

Tog'dek suyab turardi ko'zlaringiz, otajon,  
Endi qaydan topayin izlaringiz, otajon.

Otang otga mindirsa qoqilmaydi oting ham,  
Yurolmaysan otasiz to'g'ri yo'lda xotirjam.  
Kim silaydi boshingni, kim tinglaydi dodingni.

Endi anglab yig'ladim so'zlaringiz, otajon,  
Endi qandoq topayin izlaringiz, otajon.

Ajal boshni yerlarga egar ekan bildim-ku,  
Otang o'lsa, yoshlik ham tugar ekan bildim-ku.  
Otasizlik odamni ezar ekan bildim-ku!

Yuzlarimga bosmaysiz yuzlaringiz, otajon,  
Endi qaydan topayin izlaringiz, otajon.





Goh siqilsam yuragim uvaladi upaday,  
Bu dunyosi ko'zimga bo'shab qolgan supaday,  
Men-ku chidab yashayman, ayting qanday yupatay.

Yig'lab kelsa gohida qizlaringiz, otajon.  
Endi qaydan topayin izlaringiz, otajon.







## ONAJON

Onajon,  
Baxtima siz borsiz,  
O'rgilib tunlar ham bedorsiz.  
G'am nima bilmas bu jonim,  
Siz tufayli mehribonim,  
Kunlari yilday aziz –  
Bu hayot ozorsiz.

Pokiza, sarishtasiz,  
Siz bilan nurli xonam.  
Men uchun farishtasiz,  
Jonim onam, jonim onam!

Onajon,  
Baxtima siz borsiz,  
Men uchun har narsaga tayyorsiz.  
Ra'no-yu zebo o'zingiz,  
Mehri bir daryo o'zingiz,  
Sirli bir dunyo o'zingiz –  
Bir ohanrabosiz.

Onajon,  
Baxtima siz borsiz,  
Siz meni asrab kelar tumorsiz.  
Tiz cho'kib o'pay qo'lingiz,  
Yurganda yurgan yo'lingiz,  
Cho'ksa ko'taray ko'nglingiz,  
Baxtima siz borsiz!



## SO'Z QOLADI

Aylanayin, yurtim, tuproq yo'llaringdan,  
Yurgan yo'lda nigohingni yo'qlayman men.  
Qo'yماغayman qo'llarimni qo'llaringdan,  
Tilginangdan boshqa tilni uqmayman men.

Zavq kelganda aylanayin toshlaringdan,  
Kiprigingdan, aylanayin, qoshlaringdan.  
Zarim yo'g'-u, har kuni bir boshlaringdan  
Hovuch-hovuch so'z sochaman, yig'mayman men.

Ko'ngil qilday jondan o'lan sog'ar qirq yil,  
Torim chalsam, tinmay o'lan yog'ar qirq yil.  
Tirnog'imdan sochimgacha izhori dil –  
Bir to'kilsam, bir kitobga sig'mayman men.

Xayollarim avj pardalar diyorida,  
Bo'lmasam ham bulbullarning qatorida.  
Qo'sh tortaman she'riyatning shudgorida,  
Ot singari tikka turib uxlayman men.

Umr shomi olsa jonni so'z oladi,  
Izlarimdan ikki qora ko'z qoladi.  
Mendan yana nima qolar – so'z qoladi,  
O'zim o'lmay so'zim o'lsa, yig'layman men.



## AYRILMASIN

Tog'lar zilol bulog'idan ayrilmasin,  
Daryo ham o'z irmog'idan ayrilmasin.  
Siz-ku odam naslidansiz, azizlarim,  
Bevaqt, hatto, barg shohidan ayrilmasin.

Tirik jonni g'am o'ldirar, ayting endi,  
O'ringizni kim to'ldirar, ayting endi.

Tun o'rmalab bu kun nurlar makoniga,  
Qora bulut to'ldi Toshkent osmoniga.  
Kim og'am deb yig'lar bo'ldi, kimlar bolam,  
Chidab bo'lmas onalarning fig'oniga.

Ariq to'lib qon jildirar ayting endi –  
O'ringizni kim to'ldirar, ayting endi.

Gar ming hurib tursin o'ng-u so'limizdan,  
Bizni har kim qaytarolmas yo'limizdan.  
Siz Vatan deb jon berdingiz, jigarlarim,  
Har biringiz joy olgansiz ko'nglimizdan.

Bo'lmaganni kim bo'ldirar, ayting endi –  
O'ringizni kim to'ldirar, ayting endi.



## TURNALAR

Issiq-issiq yurtlar izlab,  
O'tayotir turnalar.  
Hamdam-u hamyurtlar izlab,  
Ketayotir turnalar.

Holidin bo'lmay ogoh,  
Qildik gunoh, qildik gunoh.  
Qalbi-yu qanoti muzlab,  
Ketayotir turnalar.

Xo'shlashib quyosh bilan,  
Qarog'i to'la yosh bilan,  
Yig'latib, o'zlari yig'lab,  
Ketayotir turnalar.

Mehr-u oqibat so'rab,  
Shirin kalom, suhbat so'rab,  
Ko'zga ko'rinmay olislab  
Ketayotir turnalar.

Ruhi ko'klarni quchib,  
Qo'nmoqqa joy tanlab uchib,  
Bitta-bitta yer bag'irlab,  
Ketayotir turnalar.



Qush emas, xullas kalom,  
Biri bobom, biri momom.  
Jonlari jannatni ko'zlab,  
Ketayotir turnalar!

Issiq-issiq yurtlar izlab,  
Ketayotir turnalar.







## XALQONA

Bu dunyo kecha-kunduzli,  
Toblanib qilar tamanno.  
Dushmaning qilsa yovuzlik,  
Ajablanmassan, ammo –

O'zingdan chiqqan baloga,  
Qaylarga borasan davoga?

Bolam deb mehr, jon bersang,  
O'z yurtin yovlarga sotsa,  
Siypalab, tuz-u non bersang,  
Qo'lingni tishlab qonatsa –

O'zingdan chiqqan baloga,  
Qaylarga borasan davoga?

Oqpat qushlar ham bir qo'ngan,  
Ayvonin birovga sotmaydi.  
Bo'ri bolasi sut emgan  
Iniga toshlar otmaydi.

O'zingdan chiqqan baloga  
Qaylarga borasan davoga?



Kulmaydimi, ayt odamlar,  
Qilmaydimi, ayt alamlar.  
Uyini yoqib o'zbekning,  
O'zbeking qilsa bayramlar?

O'zingdan chiqqan baloga,  
Qaylarga borasan davoga?





## TOSHKENT

Har ko'changni bir hikmati, siri bor,  
G'afur G'ulom, Oybekdayin piri bor.  
Rizq-baraka, totuvlikdir niyating,  
Mehr-oqibat shahrisan Xizri bor.

Qayda yursam quchog'iga shoshganim,  
Onamjonim – mening shahri Toshkanim!

Abrorlaring sahnalarni titratgan,  
Shukur Burhon tosh dilni ham yig'latgan.  
Bir qo'lida yurtni, bitta qo'lida  
Qodiriyning beshigini tebratgan.

Qayda yursam quchog'iga shoshganim,  
Mehribonim – mening shahri Toshkanim!

Shahri non deydilar, shahri quyoshsan,  
Yaxshi niyat har ko'ngilga yo'ldoshsan.  
Dunyolarni chorlab chaman bag'riga  
Yurtboshining orzusiga sirdoshsan.

Qayda yursam quchog'iga shoshganim,  
Qadrdonim – mening shahri Toshkanim!



Jaranglasin shodlik qo'shiq-kuylaring,  
Nurga to'lsin osmono'par uylaring,  
Osmoning tinch bo'lsin mudom, iloyim,  
Mangu bo'lsin bayramlaring, to'ylaring.

Qayda yursam quchog'iga shoshganim,  
Hur makonim – mening shahri Toshkanim!





## LOLA, LOLA

Bahor kelsa bog'larga,  
Turfa gullar to'ladi.  
Biri hali ochilmay,  
Biri qurib so'ladi.  
Asl gulning hamisha  
Umri qisqa bo'ladi.

Lola, lola, singlim-a,  
Sensiz yarim ko'nglim-a.

Tin olsin-u pok ruhing,  
Qabringda tinch yotgin sen.  
Momo yerning qo'yniga,  
Oy botgandek botding sen.  
Qo'l uzatsam qaylarga  
Yetmas edi, aytgin sen?

Lola, lola, singlim-a,  
Sensiz yarim ko'nglim-a.

Mening topgan davlatim,  
Aslida, sen eding-ku,





Tilim osti novvotim,  
Aslida, sen eding-ku!  
To'ylar qilib bermadim,  
Hur qiz bo'lib ketding-ku!

Lola, lola, singlim-a,  
Sensiz yarim ko'nglim-a.





## ARMON

O'zim qurgan uyimni  
O'zim buzdim, men buzdim.  
O'zim suygan gulimni  
O'zim suvga oqizdim.

O'yildim: bir chechak deb,  
Ovunchoq deb, erkam deb.  
Endi bilsam, dunyoda  
O'sha ekan yolg'izim.

To'lqin aro jon izlab,  
Gulim ketdi qon yig'lab.  
U ko'rinmay qolgan chog',  
Men ortidan yugurdim.

Gul ko'p edi bog'imda,  
O'sha yigit chog'imda.  
Ammo endi men faqat  
O'sha gulni qidirdim.

Endi menga jazo yo'q,  
Bundan ortiq xato yo'q:  
O'zimning ilk sevgimni  
O'zim bo'g'ib o'ldirdim.



\*\*\*

Uydan ketdim, ko'nmay qiyin-qistovga,  
Dedim, ona aytib qo'ying anovga.  
Momosini ko'rsataman, agar u  
Men yo'g'imda tegib ketsa birovga.

Qayga ketsam, she'rim, sen deb qildim men,  
Sen deb yig'ladim-u kuldim men.  
Orzularim osmon qadar bo'lsa ham,  
Mendan shoir chiqmas ekan, bildim men.

Bildim, ilhom izlab shom-u sahardan,  
She'r azobi yomon ekan zahardan,  
Yuragingda bo'lmasa gar shoirlik,  
Naf yo'q ekan hech qanaqa shahardan.

Ammo... uyga qaytay desam... biz qolib,  
Gulday qizin quchog'iga muz solib.  
Tishlarini qayrab bugun qishloqda,  
Qo'shni turar... qo'shtig'iga tuz solib.

...Momosini ko'rsataman kelsa, deb.



## IQROR

Tili novvot yangalar  
Aldar seni, lo'bar qiz.  
Gulxan yonib to'y bo'lar,  
To'ydan o'zing xabarsiz.

Gulxan bo'lib yonar jon,  
Yordan qanday tonar jon.  
Ming yashirma ko'zyoshing,  
To'kilar marjon-marjon.

Tillarimdan tomib bol –  
Bildirmasman, ehtimol.  
Bir qoshimni o'rnidan  
Jildirmasman, ehtimol!

Muhabbat yo'q deganlar,  
Yorni jondan suyganlar,  
Muhabbat yo'q deganlar,  
Bir bor sevib kuyganlar.

Menday bag'ri kuyganlar!



## SEVMAY YASHASH OG'IR

Sevmay yashash og'ir, sevmasang agar,  
Umring azobdadur, to ro'zi mahshar.

O'tar suv balosi, olov balosi,  
Illo, ko'ngilsizlik – eng katta xatar.

Sevmay yashash og'ir, sevmasang agar,  
Oltin kosadagi oshing ham zahar.

Oqshom oy to'lgani ekanki, hatto!  
Bulbulning navosi yoqmaydi sahar.

Sevmay yashash og'ir, sevmasang agar,  
Armoning tugamas go'ringga qadar.

Haqni bilmaganlar osiydir, balki,  
Ammo sevmaganlar – xudobexabar.

Sevmay yashash og'ir, sevmasang agar,  
Qo'yinda yotib ham ko'ngil darbadar.



## O'P MENI

Mening g'animlarim bulutdan ham ko'p,  
Ortimdan soyadek yurishar to'p-to'p.  
Salomat ekanim ham bir g'animat,  
O'p meni, sevgilim, o'p, so'nggi bor o'p.

Ko'ngil yig'lar, qara, ko'zlar tonmoqda,  
Ko'kragimga ko'ksing qo'ygin – yonmoqda,  
Chayqalib turibdi ruhim tomoqda,  
O'p meni, sevgilim, o'p, sevgilim, o'p.

Ey mening jallodim, ey mehribonim,  
Ko'kim tuproq mening, tuproq – osmonim.  
Tilimning uchida turibdi jonim,  
O'p meni, sevgilim, o'p, so'nggi bor o'p.

Tun deganlar bu – tilsiz bir tilsim,  
Tushi to'liq cho'g'mi, o'qmi, kim bilsin?  
Tongda turarmanmi – yo'qmi, kim bilsin?  
O'p meni, sevgilim, o'p, so'nggi bor o'p.

Jon shunday uzilsa, bu – oson o'lmoq,  
Sevsang, sitamingda o'ldir meni, moh.  
Qoshlaring dor bo'lsin, sochlaring – sirtmoq,  
O'p meni, sevgilim, o'p, so'nggi bor o'p.

Bizlar ojiz banda, ajaldir – hakam,  
Oshiqma, deb meni bo'g'magin, erkam.  
Bo'sangdan bo'g'ilib o'lay o'lsam ham –  
O'p meni, sevgilim, o'p, so'nggi bor o'p!





## SHE'RIMGA

Shukr, kunim o'tmoqda,  
Orzu otli olamda,  
Armon to'la o'tloqqa,  
Jayron to'la dalamda.

So'zdir sirli osmonim,  
Mening jon-u jahonim,  
Siyohmas, tomchi qonim  
Qalamdadir, qalamda.

Garchi yo'qlab bormasman,  
Nasihatga zormasman,  
Ko'z qog'ozda, xayolim  
Onamdadir, onamda.

Men xayolning maftuni,  
Mahzunlarning mahzuni,  
Ko'rolmaslar har kuni  
Alamdadir, alamda.

Garchi zo'r ish boshlabman,  
Devonayi Mashrabman,  
Zahmatlarim yakuni  
Bolamdadir, bolamda.



## SANAM

Xorazmdan kelibsan,  
Oy to'lgandek to'libsan.  
Shohsanamjon, Toshkanda  
Kimga shaydo bo'libsan.

Kokillaring belingda  
Jildir-jildir irmoqday.  
Tabassuming jon olar,  
Ovozing qo'ng'iroqday.

Laylo sendek xumormi,  
Zuhro sendek dildormi.  
Aytgil o'zing, dunyoda  
Sendan go'zal qiz bormi?

Yurak yonar ko'rsangiz,  
Arzir, pari desangiz.  
Sen sanamni bilganing –  
Qo'ysang'iz-a, qo'ysang'iz!



## QALDIRG' OCH

G'ussang mening g'ussamdir,  
Ayvonimda yashaysan.  
Qarab tursam, sen ham bir  
Dardli qushga o'xshaysan.  
Ko'nglingda ne savoling,  
Nega aytmay yig'laysan?

So'ra, so'ra, qaldirg'och,  
Ko'zi qora qaldirg'och.

So'yla qushim nolangni,  
Uyingda don-dun yo'qmi?  
Uying to'la bolangni  
Rizqin terib tin yo'qmi?  
Yo senda ham til yo'qmi,  
Yo senga ham kun yo'qmi?

So'ra, so'ra, qaldirg'och,  
Ko'zi qora qaldirg'och.

Bu dunyoda bir odam  
Tushunmasmi dil ohing,  
Mo'minliging sening ham  
Bo'ldimi yo gunohing.  
Ojiz qushim, sening ham  
Ochilsin bir dudog'ing.

So'ra, so'ra, qaldirg'och,  
Ko'zi qora qaldirg'och.



## ZAYNAB QO'SHIG'I

Avval bahor, oxir xazon,  
Ko'zimda yosh larzon-larzon.  
So'rmang aslo ahvolimni,  
O'z holimga o'zim hayron.

Dard kelar-u dard ketadi,  
Jon qadriga kim yetadi?  
Mening dildan suygan yorim  
Jim keladi, jim ketadi.

Kundoshli uy vayron ekan,  
Osh o'rniga ayron ekan.  
Kumushlari tilloga teng,  
Zaynablari arzon ekan.

Sepim to'la zar sandiqlar,  
Bag'rim to'la g'am-anduhlar.  
Kun chiqadi, kun botadi,  
Ko'zim kulib, ko'nnglim yig'lar.

Kundoshli uy vayron ekan,  
Osh o'rniga ayron ekan.  
Kumushlari tilloga teng,  
Zaynablari arzon ekan!



## ARMON

Xayol bilan sen tomon,  
Qaytish mumkin, xolos, yor.  
Hatto isming ham pinhon  
Aytish mumkin, xolos, yor.

Yig'laylikmi, kulaylik  
Nomus otli sandiqda?  
Yorijon, ne qilaylik,  
Sen o'n sakkiz – men qirqda.

Yarim ochiq eshikni  
Hatlab o'tolmayman men.  
Uy to'rida beshikni  
Tashlab ketolmayman men.

Bir kun bayram qilsa dil,  
O'n kun o'rtar sanchiqda.  
Koshki buni bilsa dil –  
Sen o'n sakkiz – men qirqda.

Suyib yayraganlarga,  
Yig'lab she'rlar atadim.  
Baxtdan so'raganlarga,  
Baxtliman, deb charchadim.

Koshki edi, sevmasam,  
Koshki edi, ko'rmasam,  
Koshki edi, bo'lmasam  
Sen o'n sakkiz – men qirqda.



## HAMMA XURSAND

Senga dardim yorolmadim,  
Kelolmading, borolmadim.  
Hamma xursand,  
Hamma xursand.

Sevishardi bir yigit qiz,  
U ham yolg'iz, bu ham yolg'iz.  
Hamma xursand,  
Hamma xursand.

Menga alam qilar gohi,  
Sen yig'lasang – qizlar shohi.  
Hamma xursand,  
Hamma xursand.

Sandiqda sep-ko'ylaklaring,  
Siqiladi yuraklaring.  
Hamma xursand,  
Hamma xursand.

Soching bo'yab olding sen ham,  
Qirqdan oshib qolding sen ham.  
Hamma xursand,  
Hamma xursand.

Sen-ku tirik nafsoniyat,  
Men ham izlab borsam – uyat.  
Hamma xursand,  
Hamma xursand.





\* \* \*

Chirqiragan chumchuqlar,  
Yuraginga sanchiqlar.  
Bilib qo'ying, yuragim  
Sizdan ko'ra ko'p yig'lar.

Sizdek sayroq tilim yo'q,  
Chamanim bor – gulim yo'q.  
Bu dunyoda qush tili  
Fanidan zo'r ilm yo'q.

Ammo sizmas, asli men  
Zirqirasam arziydi.  
Osmonlarni aylanib,  
Chirqirasam arziydi.

Nega xorsor shoirmi  
Nazar-pisand qilmaysiz?  
Baxtlisiz-da, chunki siz  
Ishq neligin bilmaysiz.



## IFTIXOR

Shirmon kulcha yuzlari  
Rayhon isdir bu elning,  
Uzun sochli qizlari  
To‘marisdir bu elning.

O‘zbek qizin kimligin,  
Kim aytadi men aytmay.  
Qirq yil qirg‘in bo‘lsa ham,  
Yorin kutar miq etmay.

Erkin tutar boshida,  
Nomus deya ot chopgan.  
Alp o‘g‘loni qoshida  
Asqartog‘lar tiz cho‘kkan.

O‘zbek o‘g‘lin kimligin  
Kim aytadi men aytmay.  
Maydonlarni titratar  
Yelkalari yer o‘pmay.

Gulga cho‘msin izlari,  
Erki yo‘ldosh, yor bo‘lsin.  
Shunday yurtning qizlari,  
O‘g‘lonlari bor bo‘lsin!



## SURAYYO

Ko'zlariga yulduzlar  
Termulardi Surayyo,  
Yuzlaridan oy tinib,  
O'rgilardi Surayyo,  
Ko'chalarga chiqmasa  
Ne qilardi Surayyo?

Ko'ngli tonggi shabnamdek,  
Husni tengsiz edi-ya,  
O'zi bir qiz edi-ya,  
Sochi bir qiz edi-ya!

Bir ko'rishga zor bo'lib,  
Yo'lin poylab yotardik.  
Jonimizni poyiga,  
Sadqa aylab yotardik.  
U ko'chaga chiqqan kun –  
Biz gunohga botardik.

Uni husni o'ldirdi,  
Unga ko'zlar tegdi-ya!

O'zi bir qiz edi-ya,  
Sochi bir qiz edi-ya.  
Shunday qizni yaratgan  
Qanday zargar edi-ya,



Uni ko'rsa gullar ham  
Ko'zyosh to'kar edi-ya.  
Bir qosh uysa dunyoga  
Tunlar cho'kar edi-ya.

Bir jilmaysa zimiston,  
Tunlar kunduz edi-ya,  
O'zi bir qiz edi-ya,  
Sochi bir qiz edi-ya.

Alam qilar to'yimas,  
Azasiga borganim,  
Surayyoni yaqindan  
Shunda ilk bor ko'rganim,

Xayr, ko'nglin ololmay,  
Xayr, ko'ngil berganim.  
So'nggi kiygan ko'ylagi  
Oppoq, yengsiz edi-ya,  
O'zi bir qiz edi-ya,  
Sochi bir qiz edi-ya!



## ALYOR

Farg'onaga Toshkandan  
Dovon oshib keldik biz,  
Dovon emas, ertakday  
Ipak yo'ldan yeldik biz,  
Osmono'par tog'lardan  
Ravon oshib keldik biz!

Bir buyuk zot tufayli  
Bo'ldik bugun do'stlar jam,  
Ahil elning qoshida  
Cho'kar ekan tog'lar ham,  
El tinch bo'lsa, qishda gul  
Tugar ekan bog'lar ham!

Bizning bir kaft tuproqda  
Olam-olam hikmat bor,  
Aytimg, buyuk o'tmishdan  
Ulug' qanday ne'mat bor?  
Qonimizda azaldan  
Ulug'larga izzat bor.

Ey quyoshga ostona,  
Xushmanzara, xushkalom,  
Oltinkokil Farg'ona  
Toshkandan senga salom.



\* \* \*

Yuzing o'xshar hilolga,  
Ko'zing muncha qarodur.  
Ikki qoshing arolab  
Tun o'rmalab borodur.  
Bilmam, ishqing endi meni  
Ne ko'ylarga solodur.  
Nigohlar jon olodur!

Ay, ay, ay, ay, aylanayin,  
Mayli, men zor qiynalayin,  
Qiynasang ham, suymasang ham,  
Bo'ylaringdan aylanayin!

Jon ichida jonon qiz,  
Husni yuzga mehmon qiz.  
Gaplashmaysiz biz bilan,  
Biz yo'q joyda biyron qiz.

Kuydirasiz qaramay,  
Suydirasiz qaramay.  
Hatto ko'ngil uchun ham  
Holimni bir so'ramay.





## MAHZUNA

Buncha ma'yus, hazinsan,  
Ko'nglingda ne ozoring.  
O'n sakkizga to'lsang ham  
Yo'qlamasmi bahoring?

Mahzuna qiz, Mahzuna,  
Boychechakdan ma'suma,  
Silab sumbul sochingni  
Bahor kelar, o'ksima.

Pok qizlarning baxtini,  
O'zi ochar Xudoyim.  
Gulga qo'shib boshidan  
Oltin sochar Xudoyim.

Mahzuna qiz, Mahzuna,  
Atirguldan ma'suma.  
Erta-indin „yor-yor“ga  
Uying to'lar, o'ksima.

Oq ro'molda oydek sen  
Chimildiqa kirarsan.  
Ko'ngil uchun shunchaki  
Ko'z yoshi ham qilarsan.

Mahzuna qiz, Mahzuna,  
Binafshadan ma'suma.  
Qirq qozon osh damlanib,  
To'ying bo'lar, o'ksima.



Sening to'ying menga o'y —  
Taqdir ekan, netarman.  
Balki, shu kun tonggacha  
O'zim qo'shiq aytarman!

Mahzuna qiz, Mahzuna,  
Qizg'aldoqdan ma'suma.  
Muhammading tutingan  
Og'ang bo'lar, o'ksima.





\* \* \*

Meni tashlab ketdi Guloyim,  
Menga rahming kelsin, Xudoyim.  
Qolgan umrim – qiyomat-qoyim,  
Menga rahming kelsin, Xudoyim.

Men dunyoni tushunmadim hech,  
Yaxshi-yomon gunohimdan kech.  
Endi sen ham olma mendan o'ch,  
Menga rahming kelsin, Xudoyim.

Tulpor edim, tushda ne qamchi,  
Tuyog'imda bo'ldi arg'amchi.  
Do'stlarimning bari aldamchi,  
Menga rahming kelsin, Xudoyim.

Men o'jarman, qaysar, lekigin,  
Farzandiman iymon beshigin,  
Tepib o'tdim jannat eshigin,  
Menga rahming kelsin, Xudoyim.

Sevdim, mehr qozonganim yo'q,  
Ayblarim ko'p, hech tonganim yo'q,  
Sendan bo'lak ishonganim yo'q,  
Menga rahming kelsin, Xudoyim!



## QIZ QO'SHIG'I

Har o'tganga mo'ltirab,  
Sog'inadi onalar,  
Sog'inganga yo'l qarab,  
Og'rinadi onalar.  
Sizga ilhaq olisda  
Qadrdon ostonalar,  
Sog'intirmang onangiz,  
Ey munis dugonalar!

Yoshlik o'tar, bu uyni  
Bir kun tark ham etarsiz,  
Yor-yor aytib yangalar,  
Kelin bo'lib ketarsiz.  
Ota uyning qadriga  
Balki, shunda yetarsiz.  
Ko'zingizdan tomchilar  
Munchoq-munchoq donalar.

Garchi sizdan suluv yo'q,  
Qizlar qalamqoshisiz.  
Umr kunda bayrammas,  
O'tmaydi ko'zyoshisiz,  
Malika bo'lsangiz ham,  
Palaxmonning toshisiz.  
Bo'y yetgandan keyin hech  
Ketmaydi bahonalar!



To'ydan keyin ham sizni  
Sog'inadi onalar,  
Yo'qlab bormas bo'lsangiz  
Og'rinadi onalar.  
Sizga ilhaq olisda  
Qadrdon ostonalar,  
Sog'intirmang onangiz  
Ey munis dugonalar.





## BOR BO'L

Bor bo'l bag'rimda mudom,  
O'tli iymonim mening.  
Qon bo'lib ketganda ham  
Tanamda bu jonim mening.

Menga bu jahon nadir,  
Shuhrat nadir-u shon nadir.  
Topmasam-topsam qadr,  
Bulbuldir zabonim mening.

Ahli ag'yorlar yashang,  
Pashshadan fillar yasang,  
Siz tufayli bo'lmasa  
Bo'lmasin xush onim mening.

Ey yurak, ey sen yurak,  
Menga sendek do'st kerak.  
Yo'q bugun sendan bo'lak  
Bir mehribonim mening.

Bor bo'l, ey tuproq dalam,  
Senga ta'zim, senga salom,  
Sochlari oppoq onam –  
O'zbekistonim mening.





## BOBUR NIDOSI

Toqatim toldi oqibat,  
Taxtni yov oldi oqibat,  
O'z yurtim qoldi oqibat,  
Afg'on ketdim daryo kechib.

Omad kelar-ketar ekan,  
Jon do'sting ham sotar ekan,  
Ortingdan tosh otar ekan,  
Hayron ketdim daryo kechib.

Ikki ko'zim elimdadir,  
Cho'g'dek so'zim tilimdadir,  
Dilim yonib, dilimda bir  
Armon, ketdim daryo kechib.

Yurtdan ayro adog' ko'nglim.  
G'uboriga mushtoq ko'nglim.  
Yig'lab bugun bu shoh ko'nglim  
Vayron, ketdim daryo kechib,

Bog'ishamol dayr endi,  
Qilg'ay chiqib g'ayr endi.  
Boburing yo'q, xayr endi,  
Armon, ketdim daryo kechib.



## TILLO BALIQ

Vodarig'-o, vodarig',  
Yo'llarim to'sdi ariq.  
Tushdi qo'ldan sirg'alib  
Yoshligim – tillo baliq.

Endi men bir uyga bosh,  
Bir uy bolam so'rar tariq,  
Ketdi hech qaytmas bo'lib,  
Beboshligim – tillo baliq.

Endi sen ham o'zga bir  
Ostonada ranging sariq,  
Senga men-u menga sening  
Sirdoshligim – tillo baliq.

Vodarig'-o, vodarig',  
Yo'l uzoq, o'tim oriq.  
Endi bu yo'lda menga  
Yo'ldoshligim – tillo baliq.



## QIZ QARG'ISHI

Yoshligimni xazon qilding  
Bevafo yor.  
Bu dunyo, u dunyo bo'lgin  
Sevgiga zor.

Ermak qilib, qon yig'latding  
Meni mudom.  
Ermak umrim nasib etsin  
O'zingga ham.

Sen kirgan bog' gulzorlari  
Bitsin qurib,  
Sen borgan tog' yuzin burib  
Ketsin yurib.

Suvi qurib sen suv ichgan  
Ariqlarning,  
Uvoliga qolgin tillo  
Baliqlarning.

Ko'karmasdan ko'ngling kunda  
Yig'lasin bir,  
Tosh bag'ringda tosh mehr qiz  
Uxlasin bir.



Yoshligimni xazon qilding  
Bevafo yor.  
Bu dunyo, u dunyo bo'lg'in  
Sevgiga zor.

Oydinda ham ko'rmay qolsin  
Ko'zing tinib,  
Kokilimga tekkan qo'ling  
Tushsin sinib.





## YIG'LAB TURING

Egar bo'ldik egilmagan boshimizni,  
Tandan bu jon ketmasmidi siz ketguncha.  
Aldamchi deb atamasman aslo sizni –  
Qiz bolaning va'dalari bo'y yetguncha,  
Ko'ngil uchun yig'lab turing to'y o'tguncha.

Bo'y yetgan qiz uchirma qush – uchar-ketar,  
Bir kun suyib begonani quchar-ketar,  
Erta ismim yodingizdan o'char-ketar,  
Qiz bolaning va'dalari bo'y yetguncha,  
Ko'ngil uchun yig'lab turing to'y o'tguncha.

Qizlar ko'ngli bahor bilan yoz o'rtasi,  
Gohi alam, gohi araz-noz o'rtasi,  
Qumqo'rg'ondek omonat bu ishq o'rtar.  
Qiz bolaning va'dalari bo'y yetguncha,  
Ko'ngil uchun yig'lab turing to'y o'tguncha.

Ayting-ayting, jo'ralarim kulmasinlar,  
Tili uzun shum yangalar bilmasinlar,  
Ko'cha-ko'yda meni ermak qilmasinlar,  
Qiz bolaning va'dalari bo'y yetguncha,  
Ko'ngil uchun yig'lab turing to'y o'tguncha.



## QIZ ARAZI

Mayin-mayin sabolar,  
Sochlarimni silaydi.  
Sabolarcha qadrimni  
Yorijonim bilmaydi.

Kelar edi bilganda,  
So'rashmayman kelganda.

Oy ergashar izimdan,  
Yong'ir o'par yuzimdan.  
Uyalaman yo'l qarab,  
O'zim ikki ko'zimdan.

Kelar edi bilganda,  
So'rashmayman kelganda.

Qismat bu deb peshona,  
Sovchi to'la ostona.  
Onam sho'rlik mo'ltirar  
Kunda menga parvona.

Kelar edi bilganda,  
So'rashmayman kelganda.





Bekinaman xonamga:  
Bir unga yo'q keragim!  
Aytolmasdan onamga,  
Siqiladi yuragim.

Kelar edi bilganda,  
So'rashmayman kelganda.

Bilar edi kelganda!  
So'rashmayman kelganda.







## KO'RISHMADIK

Ko'ngillar zor yig'ladi, biz  
Ko'rishmadik, ko'rishmadik.  
Baxtimiz bir kulmadi, biz  
Ko'rishmadik, ko'rishmadik.

Yo'lingga ko'z tutdim necha,  
Tolko'changdan o'tdim necha.  
Parizod, biz ming bir kecha –  
Ko'rishmadik, ko'rishmadik.

Qorlar erib – muzlar oqdi,  
Qancha bahor eshik qoqdi.  
Bizga faqat sog'inch boqdi –  
Ko'rishmadik, ko'rishmadik.

Sen qismatdan mamnundirsan,  
Balki, sen ham dilxundirsan.  
Balki, baxtli kelindirsan –  
Ko'rishmadik, ko'rishmadik.

Ko'rishsak qosh qoqarmiding,  
Bir jilmayib boqarmiding.  
Balki, endi yoqarmidim...  
Ko'rishmadik, ko'rishmadik.



## KO'RISHMADIK

Ko'ngillar zor yig'ladi, biz  
Ko'rishmadik, ko'rishmadik.  
Baxtimiz bir kulmadi, biz  
Ko'rishmadik, ko'rishmadik.

Yo'lingga ko'z tutdim necha,  
Tolko'changdan o'tdim necha.  
Parizod, biz ming bir kecha –  
Ko'rishmadik, ko'rishmadik.

Qorlar erib – muzlar oqdi,  
Qancha bahor eshik qoqdi.  
Bizga faqat sog'inch boqdi –  
Ko'rishmadik, ko'rishmadik.

Sen qismatdan mamnundirsan,  
Balki, sen ham dilxundirsan.  
Balki, baxtli kelindirsan –  
Ko'rishmadik, ko'rishmadik.

Ko'rishsak qosh qoqarmiding,  
Bir jilmayib boqarmiding.  
Balki, endi yoqarmidim...  
Ko'rishmadik, ko'rishmadik.



## NETARMAN

O'zing bor-a, o'zing bor,  
Bir quralay ko'zing bor.  
Yerdan yumshoq yuzing bor,  
O'polmasam netarman?

G'amdek shirin sevinchsan,  
Qirq yigitga ilinjsan.  
Qindan chiqmas qilichsan,  
Chopolmasam netarman?

Ko'k dalada yotgandim,  
Xayollarga botgandim.  
Og'zimdagi oq qandim –  
Yutolmasam netarman.

Changimagin tuproq yo'l,  
Bo'lgin menga o'rtoq yo'l.  
Yolg'izboshman, yolg'izqo'l,  
Chopolmasam netarman.

Yaqinlashgach uyimga,  
O'y qo'shilar o'yimga,  
Qaytay desam o'zimga –  
Qaytolmasam netarman.



## ASSALOM

Dunyoda bir soʻz bor  
Nondan muqaddas,  
Dunyoda bir soʻz bor,  
Shunday muqaddas –

Assalomu alaykum,  
Vaalaykum salom.  
Shu bir soʻz tufayli  
Yorugʻ bu olam.

Uning bilan obod  
Har bir xonadon.  
Dunyoda bir soʻz bor,  
Aziz jonajon –

Assalomu alaykum,  
Vaalaykum assalom.  
Shu bir soʻz tufayli  
Yorugʻ bu olam.

Siz ayting, avvalo,  
Kutmang, odamlar.  
Salom soʻzin darigʻ  
Tutmang, odamlar!



## BESHIK TO'Y

Tebranadi tolbeshik,  
Yog'iladi duolar.  
Beshiklarsiz, aslida,  
To'kis emas dunyolar.

Fayzli bu xonadonga  
Dilband bo'lsin muborak.  
Parvona onajonga  
Farzand bo'lsin muborak.

O'zbekimning qo'ynini  
To'ldirsin chaqaloqlar.  
Ko'z tegmasin, qo'liga  
Taqib qo'ying munchoqlar.

Izingizdan qolguvchi  
Izlar bo'lsin muborak.  
Baxti butun o'g'illar,  
Qizlar bo'lsin muborak.

Beshiklarga tangalar,  
Tashlasin yosh kelinlar.  
Sirli shivir-shivirni  
Boshlasin yosh kelinlar

Izzatbeklar, Islomlar,  
Nodiralar muborak.  
Buvi bo'lgan zotlarga  
Nabiralar muborak.



## SAHAR SABOLARI

Mahzun yuragimning mahzun navosi,  
Sahar sabolari, sahar sabosi.  
Ayting kezar bugun qaysi bog'larda  
Eng go'zal qizlarning eng bevafoosi?

Yellar, tushungaysiz meni yagona,  
Siz ham devonasiz, men ham devona.  
Kecha sirdosh edi, bugun begona –  
Eng go'zal qizlarning eng bevafoosi.

Muhabbat degani eng shirin qayg'u,  
Yurakka mixlanib qolgan ekan shu.  
Mening yigit hushim olgan ekan shu –  
Eng go'zal qizlarning eng bevafoosi.

Netay, sizga yetib – yasholmasman men,  
G'amdan chopon kiydim yecholmasman men.  
Kechib ketay desam, ketolmasman men –  
Eng go'zal qizlarning eng bevafoosi!

Yo'lim to'la toshlar tizilgan ekan,  
Dunyo og'riqlardan tuzilgan ekan.  
Bizning peshonaga yozilgan ekan –  
Eng go'zal qizlarning eng bevafoosi!



\* \* \*

Ikki yorti bir bo'lmadik,  
Bir bo'lmadik.  
Bir yostiqa sir bo'lmadik,  
Sir bo'lmadik.

Qanot yoyib uchib-qo'ngan  
Gul bog'larda,  
Bir juft qushdek hur bo'lmadik,  
Hur bo'lmadik.

Suyib-suyib qolaverdik  
Kundek kuyib,  
Oydan yog'gan nur bo'lmadik,  
Nur bo'lmadik.

Ikki tomon ketdik uchib,  
Ketdik uchib,  
Gavhar bo'ldik, olmos bo'ldik,  
Dur bo'lmadik.





## BIBIJON

O'zingdan ham zo'r yig'loqi  
Ekan surnay, Bibijon.  
Oson ekan yor ketmog'i  
Yorni ko'rmay, Bibijon!

Qo'rg'oningdan chiqqan tutun,  
Yorim, qildi bag'rim butun.  
Nahot shunday ketaversang,  
Holim so'rmay, Bibijon!

Ochilibsan, ochil bugun,  
Yelkang to'la kokil bugun.  
Yangang o'lsin sochlaringni  
Mayda o'rmay, Bibijon!

Singlim soqov. Onam jim, voh,  
Lekin yomon ezildim, voh.  
Men ham to'yga borsammikin,  
Uyda turmay, Bibijon?

Kimlar uchun to'ylar gohi,  
Kimlarga yurak o'ynog'i.  
Go'rga kirsam rozi edim,  
To'yga kirmay, Bibijon!



## OLTIN SANDIQ

Yurak to'ldi og'riqqa,  
Aytay kimga zorimni.  
Otasi oltin sandiqqa  
Solib qo'ydi yorimni.

Oltin sandiq ostida  
Olti ajdar poyloqchi.  
Darvoza to'la soqchi,  
Qo'rg'on to'la ayg'oqchi.

Shu eshikdan aylanib,  
O'tolmayin qoldim men.  
Shu qo'rg'onga boylanib,  
Ketolmayin qoldim men.

Yurak to'ldi og'riqqa,  
Aytay kimga zorimni.  
Otasi oltin sandiqqa  
Solib qo'ydi yorimni.

Oltin sandiq ochilmas,  
Iforlari sochilmas.  
Uningdek yor topilmas,  
Uningdek yor topilmas!

Shu sanamda ko'nglim bor,  
Jon so'rasa men tayyor.  
Bir boshga bir o'lim bor,  
Bir boshga bir o'lim bor!



\* \* \*

Yo'liqqanga yoshing to'kmagil, yurak,  
Hech kimga sig'inma Xudodan bo'lak.

Mening tegramda ham, sening tegrangda  
Bugun har narsa bor vafodan bo'lak.

Ajablanma, agar aldasa ham do'st,  
Do'stlikdan ne qoldi sadodan bo'lak.

Xor etdik mushtipar muhabbatni ham,  
Odam Ato, Momo Havodan bo'lak.

Bugun bizga do'st yo'q maydan mayinroq,  
Yor yo'q vafoliroq navodan bo'lak.

Bugun quloq tutsang hamma kambag'al,  
Devonayi Mashrab bobodan bo'lak.

Men eng halolman deb, har narsa qildik,  
Hech narsa qilmadik xatodan bo'lak.

O'zingni ham to'g'ri dema, Muhammad,  
Senda ham hech na yo'q riyodan bo'lak!



## TAZARRU

Oftob ortidadir fikr-u xayolim,  
Ko'kda jonga malham giyohlarim bor.  
Qushman-u, uchmoqqa yetmas majolim,  
Bo'ynimda bir shoda gunohlarim bor.

Qadrimni bebaho bildim har kuni,  
Yilda bir yig'lasam – kuldim har kuni.  
O'zim o'z patimni yuldim har kuni,  
Tonib qayga boray, guvohlarim bor.

Lutf kutib menday bir yo'qdan binodan,  
Yo'limga termulib o'tdi dunyodan.  
Otamga yetolmay, qoldim duodan.  
Qabriga yog'gan oq munchoqlarim bor.

Til bir yon tortqilab, dil tortdi bir yon,  
Yuragim tushovga solingan tug'yon.  
Jonimda tug'ilmay jon bergan isyon –  
Chaqnamay charchagan chaqmoqlarim bor.

Qaytar o'rtasiga ikki qoshlarim,  
Qachondir qavmimga otgan toshlarim.  
Yelka tutgaymikin yelkadoshlarim,  
Aytilmagan uzr-u so'roqlarim bor.

Oldinda ma'shuqam kutar yoyib sep,  
Qani u men borar jannat-chaman deb,  
Xudoning oldida farishtaman deb,  
O'zni har maqomga urmoqlarim bor!



## TERMA

Yomon ko'z tosh yorar der,  
Yomon do'st bosh yorar der.  
Yomon erkak to'y buzar,  
Yomon qiz uy buzar der,  
Yomon bo'lsa yo'ldoshing  
Bor baxting ham to'zar der.

Yomon bog'ga gul bo'lma,  
Sahroda bo'l yulg'uncha.  
Yomon bilan yurguncha –  
Yolg'iz yasha o'lguncha!

Bildingki, bevafo dir,  
Ko'ngil qo'y moq xatodir.  
Qo'ling o'pib, qo'yningni  
Nimta-nimta etodir,  
Bir ish tushsa boshingga  
Boqmay tashlab ketodir.

Qayg'urguncha qayg'urgin,  
Qayrilmasga qayrilma.  
Vafosizga berilib,  
Vafolidan ayrilma!

Bir ko'ngil imorati,  
Ming Makka ziyorati.  
Bor bo'lsin har ko'ngilning  
Ko'ngilga ibodati.



## DUNYOYI DUN

Dunyoyi dun,  
Ey dunyoyi zormanda –  
Gunohlar undirib bosgan qadamdan,  
Odam o'g'li ayirguvchi odamdan,  
Ko'ngillar nurini to'sguvchi parda.

Dunyoyi dun,  
Ey dunyoyi zormanda –  
Qonlar qusgay mayi bo'ling totganlar.  
Qo'lsiz o'sgay qo'llaringdan tortganlar,  
Yo'ling to'sgan kaski, oxir sharmanda.

Dunyoyi dun,  
Ey dunyoyi zormanda –  
Ne nahrsan, ne sehrsana, ne tilsim.  
Seni desam qalbidan qalb ne qilsin,  
Sen qo'shig'i, kuyi yengil xonanda.

Dunyoyi dun,  
Ey dunyoyi zormanda –  
Seni degan bo'lar battar gadodan,  
Jannatni qizg'angan Odam Atodan,  
Seni degan faromush, parokanda.

Dunyoyi dun,  
Ey dunyoyi zormanda –  
Jisming tugul ismingni ham so'rmasman,  
Ko'z ochiq-u, nozik ishvang ko'rmasman –  
„Dil ba yor-u dast ba kor“ muhri tandal





\* \* \*

Jamolin ko'rmoq o'yida ul ko'zi mastonani,  
Bor-shudimdan voz kechib, tark ayladim koshonani.

Qoshiga kelgach esa ul nigor qaboq uyib,  
Tutilmay biror so'zda boshladi afsonani.

Bir paytlar qalb uyiga boshlagandi ul o'zi,  
Endi bo'lsa unutdimi, bostirmadi ostonani.

Boshimni quyi osdim, bo'ldi nam kipriklarim,  
Qayta izlab ketdim yana kulbayi vayronani.

Ayblama, ey Muhammad, ul nigorni zarracha,  
Boshiga ursinmi, axir, sen kabi devonani.







## TO'YONA

To'y ko'chada tong otguncha gulxan yondi,  
Boray desam topolmadim ko'ylagimni.  
Gulxan ichra gulxan bo'lib bir jon yondi,  
Kuya-kuya kulga ko'mdim tilagimni.

Chimildiqda yolg'on yig'lar yolg'onchi qiz,  
Kulib kimni ermak qilar o'lanchi qiz?  
Bag'rim yonar, onajonim, siz bilmaysiz,  
Hijron otli xanjar tilar yuragimni!

Yigit bo'lib ne ko'ribman men dunyoda,  
Yorim yashnab turar tillo taqinchoqda,  
Qo'llarimmas, endi o'sha shoda-shoda  
Marvaridlar bo'ynin silar malagimning.

Bu hovliga endi men bir bo'ylamasman,  
Ketaversin ketsa, uni o'ylamasman,  
Yolg'onchining yoniga ham yo'lamasman,  
Yo'latmam ham yaqiniga yo'lagimning.

To'y ko'chada tuni bilan gulxan yondi,  
Boray desam topolmadim ko'ylagimni.  
Gulxan ichra gulxan bo'lib bir jon yondi,  
Kuya-kuya kulga ko'mdim yuragimni.



## DUNYO

Bu ne savdo, ne tilsim,  
Qilar ekan alamlar.  
Aytgin o'zing, ne qilsin  
Olma yuzli sanamlar?

Kumushlaring ko'p, ammo,  
Otabeging yo'q, dunyo!

Netay menga yoqmasa,  
Senga yoqqan yigitlar,  
Bilagiga tillodan  
Zanjir taqqan yigitlar.

Kuyovlar to'p-to'p, ammo,  
Otabeging yo'q, dunyo!

Men zor bo'lsam bo'larman,  
O'z begim, sultonimga,  
Sen yuborgan sovchini  
Yo'latmasman yonimga.

Kel, ostonam o'p, ammo  
Otabeging yo'q, dunyo!



## SEVGI, SENDAN QO'RQAMAN

Sevgi, menga bo'ylama,  
Mehring bilan siylama.  
Otash nigohing qadab  
Jonimni yoqib qiynama.  
Qo'rqaman.

Eng beg'ubor sen o'zing,  
Eng beozor sen o'zing.  
Lekin gohi yig'latib,  
Oshiqqa ozor sen o'zing.  
Qo'rqaman.

Ne bo'ldi maftunlaring,  
Ko'yingda majnunlaring.  
Domingga tushgan dilni  
Qon qildi-ku afsunlaring.  
Qo'rqaman.

Senmasmu Laylosidan,  
Vomiqni Uzrosidan,  
Ayirib bo'zlatib ketgan  
Yusufni Zulayhosidan?  
Qo'rqaman.

Sevgi, menga bo'ylama,  
Mehring bilan siylama.  
Otash nigohing qadab,  
Jonimni yoqib qiynama.  
Qo'rqaman.



## QIZ QO'SHIG'I

Bodom erta gullasa,  
To'kilmog'i tayindir.  
Qiz begunoh yig'lasa,  
Yor gunohi tayindir.

Yig'lama qiz, yig'lama,  
Mulzam dunyo bu dunyo,  
Yurak-bag'rim tig'lama,  
Bir kam dunyo bu dunyo!

Kimdir zargar, kim kosib,  
Kimga sevgi ermakdir.  
Hur qizlarga munosib  
Erlar bugun ertakdir.

Avliyolar anglamas  
Mubham dunyo bu dunyo.  
Zor yig'lasang tinglamas  
Bir kam dunyo bu dunyo!

Tog'ni dast ko'targan tan,  
Goh bir so'zni ko'tarmas.  
Qizni beayb yig'latgan  
Yigit zoti ko'karmas.

O'ktam dillar adosi,  
O'ktam dunyo bu dunyo.  
Shirin so'zning gadosi,  
Ko'rkam dunyo bu dunyo!



## NIYAT

Aylanar charxpalak kunlarim gali,  
Umrin tog'dan tushgan soydek yeladi.  
Ertakka aylanib qolmasdan hali,  
Bir qari doyani ko'rgim keladi.

Ko'rgim kelar toshni sahroda kuygan  
Va bukri tuyani yantoqqa to'ygan,  
Jayronning oldiga qalandar qo'ygan –  
Bir bog'lam poyani ko'rgim keladi.

Karvonlarni ko'rgim keladi saf-saf.  
Va karvonboshilar qilichin sadaf,  
Majnunlar kapasi oldida bir kaft  
Jannatiy soyani ko'rgim keladi.

Ko'nglim yaxshilikni yo'qlab tolmadi.  
Jonni tutdim na do'st, na yot qolmadi,  
Unga chang solmagan bir zot qolmadi,  
Endi himoyani ko'rgim keladi.

Orzum bir uzunki, yetmaydi nafas,  
Bir g'olib ko'nglimda ming oliy havas,  
Oynayi jahonda gul qizlarnimas –  
Lutfixon ayani ko'rgim keladi!



## ZAYNAB NOLASI

Tengim boshqa dedi yor,  
Topdim desam tengimni.  
Marg'ilonlik bir dildor  
Topib oldi begimni.

Kulgu ketmay ko'zimdan,  
Yog'ar bo'ldi ko'zyoshim.  
Ko'z-ko'z qilib baxtini  
Yoqar bo'ldi kundoshim.

Nima bo'ldi, bek yigit,  
Bekangizga qarash yo'q?  
Kumushdan ming o'rgilib,  
Zaynabdan hol so'rash yo'q.

Taqdir derdim, shum taqdir,  
Ko'nglim ko'nsa – kuymasdim.  
Begim, sizni men, axir,  
Kumushdan kam suymasdim.

Qolsam dardim bir dunyo,  
Ketsam – bir uy ko'chim bor.  
Kumushoyni keltirgan  
Aravada o'chim bor!





## KOMILA QIZ

Erkam, seni erkalayin, qochmagil,  
Suluvsanki, sirlaring ko'p ochmagil.  
Jilva bilan boqishlaring  
Jonim oldi, jon oldi,  
Kulib, kiprik qoqishlaring  
Yuragimga o't soldi.

Qizg'aldog'im, kel endi,  
Yori jonim sen endi,  
Komila qiz, bir umr  
Dil fig'onim sen endi.

Binafshadek sen billur  
Yaralgansan mehrdan,  
Qo'shig'im sal kechikdi,  
Ranjimagin Muhirdan.

Orzu-umid qizisan,  
Sen oq bulut qizisan,  
Komila qiz, Komila,  
Jonimni yolg'izisan.





## BINAFSHA

Suv bo'yida binafsha  
Bahor bilan uchrashdi.  
Bo'yiga yetgan qizlarga  
Gala sovchi ulashdi.

Binafshajon, binafsha,  
Kokillari haydarsan.  
Menga loyiq qiz topsang,  
Qulog'imga aytarsan.

Men g'aribga sovchilik  
Sendan o'zga kim qilgay.  
Gulday nozik qiz qalbin  
Sen bilmasang, kim bilgay.

To'y qilamiz keng chaman,  
Ariqlarning bo'yida.  
O'zing o'ynab berasan  
Muhammadning to'yida.

Ayt, ayt, u qiz qani,  
Binafshajon, binafsha?  
Ayt, ayt, aytaqolgin,  
Binafshajon, binafsha!



## NON KULCHA

Ay, uzun ko'ylakli, jamalaksoch qiz,  
Ko'nglim tushgan edi ko'ngilchangizga.  
Yoddami beg'ubor bolaligimiz,  
Qo'lim tekkan edi kamzulchangizga...

Biz qoldik, Bolalik ketdi yugurib,  
Ikkalamizni ham ikki yon surib,  
Zor bo'lsam – zor bo'ldim shuncha  
yo'l yurib  
Siz suvga botirgan nonkulchangizga.

Eshitdim, sovchilar non sindiribdi,  
Yangalar yugurib jon kuydiribdi,  
Suymaganingizni ham suydinibdi,  
Arz qipsiz ayvonda musichangizga.

Bilaman, Siz uzoq umr ko'rasiz,  
Balki so'ramassiz, balki so'rarsiz.  
Xudo bersa bir kun o'g'il ko'ransiz,  
Meni yomonlamang o'g'ilchangizga!..



## CHO'LOQ TURNA

*Nizom akaga*

Bir oyoqda chopib kelding  
Cho'loq turna,  
Uyim qaydan topib kelding,  
Cho'loq turna?

O'zi qon dilni endi  
Sen ham tirna,  
Qay yovuzga nishon bo'lding,  
Cho'loq turna?..

Keldingmi kir, ostonada  
Cho'chib turma.  
Bor ekan-da peshonada,  
Cho'loq turna.

Begonamas bu ko'rgulik,  
Boshga tushgan,  
Mening ham qoq yuragimga  
Tosh otishgan.

Biz tilmochsiz bir-birimiz  
Tushungaymiz,  
Sharob ichmay, aka-uka  
Tutingaymiz!



\*\*\*

Kerak bo'lsa, sevganim yo'q  
Men ham seni.  
Yolg'izimsan deganim yo'q,  
Men ham seni.

Sen yashading qiyo boqmay,  
Kiprik qoqmay,  
Bir ko'ray deb kelganim yo'q  
Men ham seni.

O'ylaganing yo'q sen zinhor,  
Meni dildor,  
Sira orzu qilganim yo'q  
Men ham seni.

Qaramading, qalaysan deb  
So'ramading,  
Nazaringa ilganim yo'q,  
Men ham seni.

Ko'ksingda g'am yetib ortar  
Meningsiz ham,  
G'amingga tug'ilganim yo'q  
Men ham sening...

Shunday o'zim, shahringga bir  
Kelgan edim.  
To'ying ekan... bilganim yo'q  
Men ham sening!



## VIDO

Oy mo'ralar tuynukdan oqshom payti,  
Tolbeshikni tebratib siz horibgina,  
Alla aytib o'ltirmaysiz g'aribgina,  
Erkaligim sig'ar kunlar kelmas qaytib,

Bolangizning armonlari ozmi endi,  
Bizni tashlab ketganingiz rostmi endi?..

Siz bor tugal dunyo menga yoqar edi,  
Osmon to'la yulduz kulib boqar edi.  
Siz kirgan uy yashnar edi nurga to'lib,  
Siz yurgan yo'l chaman edi, bahor edi.

Bog'imizda qovjiragan yozmi endi,  
Bizni tashlab ketganingiz rostmi endi?..

Onajonim, qachon yetdim qadringizga,  
Tollar ham dosh berolmaydi sabringizga.  
Olisda ham yuzim silab yupatasiz,  
Ko'nglim cho'kib qachon kelsam qabringizga.

Har so'zingiz xotira-e'zozmi endi,  
Bizni tashlab ketganingiz rostmi endi?..

Yetti osmon yorishmas siz uyg'onmayin,  
Sizni ko'rmay oftob qanday chiqsin, onam,  
Sizsiz menga fazilatsiz, fayzssiz olam,  
Dilda titroq, qo'lda yig'loq sozmi endi?..



## OTAJONLARI!

Qo'rg'oniga borin to'kkan otajonlar,  
Farzandiga jonin tikkan otajonlar.  
Begoyim deb ardoqlagan qizlarini,  
O'g'liga ot bo'lib cho'kkan otajonlar...

Yurak olov-yolqinligi Siz tufayli,  
Bizning yoshlik olovligi Siz tufayli,  
Dasturxonlar to'kinligi Siz tufayli  
Siz yo'q uyda fayz yo'q ekan otajonlar...

Biz ne etsak borib Sizga tegar ekan,  
Bizga sho'xlik – Sizlarga qon jigar ekan.  
Otang o'lsa bolalik ham tugar ekan,  
Sizlar tirik – biz sho'x ekan, otajonlar.

Shod-u mamnun – davronini sur otaning,  
Holing zabun – bor, pinjiga kir otaning.  
O'ttiz o'g'il boqolmaysan bir otani!..  
Yerdekk xoksor, ko'kdek ulkan otajonlar.

Adoyingiz bo'lsak arzir, adoyingiz,  
Payg'ambarning nidosidir nidoyingiz.  
Biz ko'karsak – ko'kartirgan duoyingiz,  
Biz bir nihol Sizlar ekkan, otajonlar...

Qo'rg'onida borin to'kkan otajonlar,  
Farzandiga jonin tikkan otajonlar.  
Begoyim deb ardoqlagan qizlarini  
O'g'liga ot bo'lib cho'kkan OTAJONLAR!!!





## TALABALIK

Menga,  
Tanga kerak bo'lib qoldi,  
Bir kuni.  
Kvas sotayotgan qizning yonida,  
Cho'ntagimning eng chuqur joyidan  
Izladim uni.  
Behuda,  
Behuda,  
Behuda –  
Talabalik degani shu-da!







## LAYLAKQORLAR YOG'GANDA

Bag'rim to'lar dog'larga,  
Laylakqorlar yog'ganda.  
Bizlar kezgan bog'larga  
Laylakqorlar yog'ganda.

Yodga tushar malagim,  
Sochlari jamalagim.  
Dalalarga, joylarga,  
Laylakqorlar yog'ganda.

Ko'zlarim to'rt kutardim,  
Qorga ismim bitardim.  
Zor bo'ldim u chog'larga,  
Laylakqorlar yog'ganda.

Qayda u qiz, top deydi,  
To'rt tomonga chop deydi.  
Jon kelar tomonlarga,  
Laylakqorlar yog'ganda.

Deyman u baland joyda,  
Topganimdan ne foyda?..  
Boqaman uzoqlarga,  
Laylakqorlar yog'ganda.

Ketgan yorni sog'inib,  
She'r yozaman ovunib.  
Chidayman qiynoqlarga,  
Laylakqorlar yog'ganda!..



## TAVALLO

O'tganda ber, Xudoyim,  
Ketganga ber, Xudoyim.  
Ozodlikni qadriga  
Yetganga ber, Xudoyim

Hurlik qanday tansiq so'z,  
Qullik qalbga sanchiq so'z.  
Hurriyatni boshida  
Tutganga ber, Xudoyim.

Avaylab har yaprog'ing,  
Ko'zga surtsin tuprog'ing.  
Erkni bersang – erk deb qon  
Yutganga ber, Xudoyim.

Xoh ziyoli, xoh kosib,  
Bo'lsin unga munosib.  
Vatan bersang orziqib  
Kutganga ber, Xudoyim!..

Rizqingni bilgan zotga ber,  
Shukr qilgan zotga ber.  
Yurtni har kun ziyorat  
Etganga ber, Xudoyim.



## YOSHLIK

Bor bisotim oldi yoshligim,  
Yurak shunga ko'ndi-yu ketdi.  
Yodda shunday qoldi yoshligim:  
Qush daraxtga qo'ndi-yu ketdi.

Demak, dunyo chindan tor ekan,  
Demak, vido kuni bor ekan.  
Tushib keldim oyning oldidan,  
O't bir yonib so'ndi-yu ketdi

Dunyoda eng katta boy edim!..  
Gijinglagan asov toy edim,  
Sharqiragan toshqin soy edim,  
Suvim sovib, tindi-yu ketdi.

Yetishmaydi menga ne jihat?..  
Allaqayerlarimdir diqqat.  
O'sha qomat, o'sha bo'y, faqat,  
Yurak chil-chil sindi-yu ketdi.

Do'stlarim ko'p edi, do'stlirim,  
Keskir-keskir edi so'zlarim.  
Xira tortib qoldi ko'zlarim,  
Sochlarga qor indi-yu ketdi.

Qush daraxtga qo'ndi-yu ketdi.



## NAVRO'Z TILAKLARI

Dasht-u dalalarga sep yoydi ko'klam,  
Boshladi yallasin billur buloqlar.  
Bo'y yetgan qizlarga boshlandi bayram,  
O'smaga burkandi qosh-u qarog'lar.  
Mayli oq yomg'irlar yog'sin, mayliga –  
Yur do'stim chiqaylik navro'z sayliga!..

Ko'kda kamalaklar rangin izlari,  
Shabnam maysalarning yuvdi yuzlarin.  
Kapalak qanoti tegib bargiga,  
Dunyolarni tutdi jambil islari.  
Sabo bodom gulin qoqsin, mayliga,  
Yur do'stim, chiqaylik navro'z sayliga.

Jilg'alarda boychechaklar boylandi,  
Fasllarga beka-bahor saylandi.  
Keldik huzuriga qorlar kechib biz,  
Yana boshimizdan bir yil aylandi.  
Bahor chaqmoqlarin chaqsin mayliga,  
Yur do'stim, chiqaylik navro'z sayliga.

Bog'da bolachalar „to'y-to'y“ o'ynashar,  
Kuyovcha – o'n yashar, kelin – o'n yashar.  
Omon bo'lsa hali shu jajji qalblar,  
Bizlar orzu qilgan dovonlar oshar.  
Ularga baxt kulib boqsin mayliga,  
Yur do'stim, chiqaylik navro'z sayliga!..



## OTA YIG'ISI

Yursa yerlar chirsillagan yo'lbarsqadam,  
Rustam kabi alpqomat, bo'ychan bolam.  
Yolg'izim deb, yer-u ko'kka ishonmasam,  
Ko'zim nuri desam, ko'zim o'ychan bolam...

Qayda yursam xayolim shu toychog'imda,  
Bolamga deb, rizq tashirdim belbog'imda.  
Yuz o'girib endi keksaygan chog'imda,  
El-yurt ichra boshim bukib qo'ygan bolam.

O'ynasin deb unga yumush qoldirmasdan,  
Tarsillagan bilaklarin toldirmasdam.  
Erkalardim, yerdan bir cho'p oldirmasdim,  
Ranj chekmay to'q yurgan bolam, to'ygan bolam.

Uni suyib to'ymaganim essiz, essiz,  
Quchog'imdan qo'ymaganim essiz, essiz,  
O'lib ketsam menga g'anim qidirmangiz,  
O'tmas pichoq bilan meni so'ygan – bolam!..

Yursa yerlar zirillagan arslonqadam,  
Rustam kabi alpqomat, bo'ychan bolam.  
Yolg'izim deb yer-u ko'kka ishonmasam,  
Ko'zim nuri desam, ko'zim o'ygan bolam.



## TILLA BALDOQ

Suyukli yor qulog'ingda  
Tilla baldoq.  
Men yasharman yuragingda,  
Tilla baldoq.

Unutolmay o'rtanasan,  
Tilla baldoq,  
Yurgan yo'l-u yo'lagingda,  
Tilla baldoq.

Sen yig'lasang, yig'laydi zor  
Tilla baldoq.  
Qo'lim izi bilagingda,  
Tilla baldoq...

Yoring boshqa, yoring bo'lak,  
Tilla baldoq.  
Men boshqang, men bo'laging-da,  
Tilla baldoq!





## ELIM

Na yerda gavharsan, na ko'kda hilol,  
Xorsan, g'aribsan bir maskan bo'lmasa.  
Boshingga soyabon majnuntol misol  
Senga parvona bir Vatan bo'lmasa.  
Sensiz saholarda sarobdir yo'lim,  
Tuproq'i ko'zimga to'tiyo elim.

Qatorda yomoning bo'lmay iloyo,  
Sening nazaringdan qolmay iloyo.  
Kiyik bolasidek nochor jovdirab,  
To'rt tomon yugurib-yelmay iloyo.  
To'nim etagidan tushmasin qo'lim,  
Tuproq'i ko'zimga to'tiyo elim.

Sening ulug'liging, ustuvorliging,  
Bizni bilmaganga bo'lsin yorlig'ing.  
Qanday bo'lsang shunday azizsan menga,  
Mening davlatim bu – sening borliging.  
Sen duo qilsang bas – „Kam bo'lma, o'g'lim“,  
Tuproq'i ko'zimga to'tiyo elim.

Abaddir yashnashi bir yashnagan bog',  
Qadim sen o'tqazgan nihol, novdalar.  
Dunyoga ko'z-ko'zlab tiklamoqda, boq –  
Temurning davlatin temurzodalar.  
Qaytgani rost bo'lsin bu gulshan so'lim,  
Tuproq'i ko'zimga to'tiyo elim.





## SENI YAHSHI KO'RAMAN

Tilga kirdi shu bahor bu o'qariq,  
Gulga kirdi ana, g'o'za ko'karib...  
Endi suvga chiqsang ko'za ko'tarib,  
Sen albatta yalpizlardan so'ra, man  
Seni yaxshi ko'raman.

Bir kun seni ko'rdim, agar tonmasang,  
Sevgi shu – yor diydoriga qonmasang,  
To'lin oydek ruxsoriga qonmasang,  
Ishonmasang yulduzlardan so'ra, man  
Seni yaxshi ko'raman.

Bir qishloq qiz qiqir-qiqir kuladi,  
Ular meni ermak qilar, biladi,  
Men ularga toji davlat tiladim,  
Sendan go'zal shu qizlardan so'ra, man  
Seni yaxshi ko'raman.





## QIZLARXON

Qizlarxonim qizlarning sarasidan,  
Muchchi olsam qoshlarin orasidan.  
Arazlasa aylanay arazidan –  
Qizlarxonim qizlarning sarasidan...

Qizlarxonning dog'ida kuyganim rost,  
O'ndami yo o'n birda suyganim rost.  
Qulog'iga aytishga bo'yim yetmay,  
Qo'lchasiga qo'l tashlab qo'yganim rost.

Qizlarxon qizligidan tanish edi,  
Qayda ko'rmay qilgani nolish edi.  
Erinmayin eshitsam nolishini,  
Bilagimga to'pig'i bolish edi...

Qizlarxonning qilig'i ham yoqardi,  
Lablari shakkari til yorardi.  
Qo'lim tegsa qo'liga ko'zim tinib,  
Kokil yoysa kokili gul tarardi.

Qizlarxon deb ne qizdan kechgan edim,  
O'lsam ayrilmay deb ont ichgan edim.  
Qizlarxonni qizg'anib o'zimdan ham,  
O'psam bir bor o'pib yo quchgan edim...

Sabil sevgim men endi qayga ko'may?  
Ketib qoldi Qizlarxon „xayr“ demay.  
Yoshlikda ko'ngil bergan yomon ekan –  
O'ndami yo o'n birda sevmay o'lay!..



## OSHIQ DILIM

Ko'nglim yaqin, yo'lim olis,  
Yetolmayman, yetolmayman.  
Dardim kuylab, ko'changdan bir  
O'tolmayman, o'tolmayman.

Ikki ko'ngil orasida  
Dardi hijron, dardi hijron.  
Yuragimga diydor gulin  
Tutolmayman, tutolmayman.

Oshiq dilim vayrona,  
Kuyingda yona-yona.  
Kuydirmagin azobda,  
Sevingdan tona-tona.

Yuz-ko'zingdan bo'sa olib,  
Ishq gulobin icholmayman.  
Na ko'ksimga boshing qo'yib,  
Soching silab qucholmayman.

Fikr-u yodim faqat senda,  
Qanotim yo'q, ucholmayman.  
Vujudim ichra jondursan,  
Axir jondan kecholmayman.



## VATAN

Ey menga ertaklar so'ylagan zamin,  
Ergashib izingdan qolmasman sening.  
O'zgalar nazdida bog'i Eramni  
Jiydang yaprog'iga olmasman sening.  
Vatan, qayda bo'lmay sen hamrohimsan...  
Bobolarim yotar sajdagohimsan!

Oftob kelin tushgan bog'laring ko'rkam,  
Yalpizlar yastangan dala-dashtlaring.  
Osmonga tutashgan oqterak o'lkam,  
Ko'nglimda o'zgacha sayr-u gashtlaring.  
Vatan, qadrim uyi-xonaqohimsan,  
Momolarim yotar sajdagohimsan...

Oltin beshik uzra allalar aytib,  
Hamisha bedorim – onayizorim.  
Jilg'asi jarangi tongda uyg'otib,  
Yuraginga kirib kelgan bahorim,  
Vatan, kunda boqib to'ymayin, kimsan –  
Oq oranib botar sajdagohimsan...

Suyib siym-tanimga solgan sen cho'g'ni,  
Poying o'psam arzir cho'kka tushib tiz.  
Sen-ku mangudirsan men bormi-yo'qmi,  
Men qaydan kunimni ko'rardim sensiz.  
Vatan, jonga jondan yaqinrog'imsan,  
Qavmim ildiz otar sajdagohimsan...



Alqab meni kuzat, ilhaq meni kut,  
Ey bir parcha bulut, ey bir parcha yo'l.  
Omon bo'l sen borki dunyolar unut –  
Sening huzuringga eltar barcha yo'l.  
Vatan, men kelsam ham kelgan yog'imsan,  
Ketsam asqatar qarorgohimsan!..





## KO'ZMUNCHOQ

*Mukambarga*

Mushfiq qushday mushtipar,  
Ko'ngil siri pinhonsan.  
Sho'ring qursin singilcham,  
O'z uyingda mehmonsan...

Omonatdir ota uy,  
Bu xush choqlar omonat.  
Qo'lingdagi arzon shu  
Ko'zmunchoqlar omonat.

Hamma senga qarindosh –  
Xaridor uzilmaydi.  
Ko'nglingga kim yoqishin  
Hatto, onang bilmaydi.

O'zim bilan o'zim band,  
Yonishlaring ko'rmasman.  
Akang bo'lib mundoq bir  
Ko'nglingni ham so'rmasman.

Sen ketarsan ko'zda yosh,  
Baldoq taqib qo'lingga.  
Yodgor bo'lib qoladi  
Ko'zmunchog'ing singlingga...



## ISTAK

Ko'zyoshlari daryo bo'ldi bu dunyo,  
Tugab-tugab ado bo'ldi bu dunyo,  
Tinch kunlarin sog'indi bir odamdek,  
Urushlardan zada bo'ldi bu dunyo.

Yuzing yashnab oy to'lgandek to'l endi,  
Yangi asr – shodlik asri bo'l endi!..

Boq, maysadek bag'ring to'la go'dakdir,  
Har uyda bir beshik bilan yo'rgakdir.  
Dur-u gavhar so'armidi go'daklar  
Ularga tinch parcha osmon kerakdir.

Yangi asr, g'amga berma yo'l endi,  
Bolalik – obodlik asri bo'l endi!..

Har go'shaning o'z giyohi, lolasi,  
Har kimsaning o'z qushi, o'z dalasi.  
Qo'y holiga, yayrasin bu dunyoda,  
Bir bor yashar axir, odam bolasi.

Asrlarning nurli asri bo'l endi,  
Yangi asr – hurlik asri bo'l endi!..

Chiroy ochsin dardkash mening elim ham,  
Soddadil, zahmatkash mening elim ham,  
Elat emas – millat bo'lsin birlashib  
Dunyoda mehnatkash mening elim ham.

Yangi asr, kelgin menga qo'l endi,  
Birdamlig-u, birlik asri bo'l endi!





## KO'NGIL QO'SHIG'I

Bog'da shabnam – bodaga,  
Ko'nlimni berdim, do'stlarim.  
Bir guli ozodaga,  
Ko'nlimni berdim, do'stlarim.

Dedilar: teng-teng bilan,  
Yaqoni ishqiyeng bilan.  
Men gado, xonzodaga  
Ko'nlimni berdim do'stlarim.

Yor husnin so'rganim yo'q,  
Yuzda xolin ko'rganim yo'q.  
Ko'zdagi ifodaga  
Ko'nlimni berdim, do'stlarim.

Goh bir yo'qlab ketadi,  
Yig'latib, yig'lab ketadi.  
Bargman-u shabbodaga  
Ko'nlimni berdim, do'stlarim...

Bog'da shabnam – bodaga,  
Ko'nlimni berdim, do'stlarim.  
Bir guli ozodaga,  
Ko'nlimni berdim, do'stlarim.



## BULUT

Oq bulut, oq par bulut,  
Ko'kdagi kaptar bulut.  
Senga dardim so'zlasam,  
Bo'lur ming daftar bulut.

Bir qizni suygan edim,  
Ishqida kuygan edim.  
To'yda bir ko'rgan edim,  
Sen o'zing axtar, bulut.

Sen ko'kda, men yerdaman,  
Sen ozod, men terdaman.  
Topgin, men qayerdaman?  
To ro'zi mahshar bulut.

Sen ko'kingdan tushmagin,  
G'amzalarga uchmagin.  
Bevafoni quchmagin,  
Jonlarim qaqshar bulut.

Men-ku bir mehmon edim,  
Shod edim, shodmon edim.  
Oddiy bir inson edim,  
Kim meni saqlar, bulut?!



\*\*\*

Qo'lim tegmay to'kildi gulim,  
Suvga tushdi, oqdi-yu ketdi.  
Omadim yo'q ekan, sevgilim,  
Bo'lsa ham bir boqdi-yu ketdi...

Ayting-ayting, ko'nghimni so'rab  
Lazzatlanmoq istar endi kim?..  
Men sevgimni gulbargga o'rab,  
Kuyib ketgan jonimga ko'mdim.

Muhabbtim – mening shoh baytim,  
Oq-u qarosi sen ko'zimning.  
Men dardimni osmonga aytdim,  
Yulduzlarga bosib yuzimni.

Nechun endi g'amgin nigohim,  
Ayting, bilmog istagan kimdir?  
Oftob mening bir chekkan ohim,  
Oq yomg'irlar ko'z yoshlarimdir...

Qo'lim tegmay to'kildi gulim,  
Suvga tushdi, oqdi-yu ketdi.  
Omadim yo'q ekan, sevgilim,  
Bo'lsa ham bir boqdi-yu ketdi.



\*\*\*

Bir kuni  
Yoningga kelaman,  
Deyman: men sen kutgan bolaman.  
Tinglaysan ochilib sen chaman,  
Men seni sevaman, sevaman!..

Kel, deysan. Kun sovuq, o'tirgil,  
Kaftimda laylakqor – atirgul.  
Xonangda yugurib-yelaman,  
Men seni sevaman, sevaman.

Kim-u kim kuladi, kuladi,  
Bildirmay ermaklar qiladi.  
Mayli men g'alati, telbaman,  
Men seni sevaman, sevaman.

Kel, deysan. O, muncha kechikding,  
Yo'q endi u g'uncha, kechikding.  
Boq yigit, atrofing qahramon...  
Men seni sevaman, sevaman.

Sen turgan joy endi biy dala,  
Qo'lingda qorako'z bir bola.  
Men endi qo'shiqmas – nolaman,  
Men seni sevaman, sevaman.



## TO'Y KECHASI

Yuzga upa surmasdan,  
To'lin bo'ldi Zebijon.  
O'n sakkizga kirmasdan,  
Kelin bo'ldi Zebijon.

Men ne derdim, nima dey?  
Olov edik, sho'x edik.  
Zebi bilan erinmay,  
O'n yil birga o'qidik.

Eski maktab, alvido,  
Xonalari tor edi.  
O'rtamizda bir Xudo,  
Bir siyohdon bor edi.

Men lapashang, albatta,  
So'ramadim ko'nglini.  
O'n yil o'qib bir marta,  
Ushlamadim qo'lini...

O'tiribman endi jim,  
Keksa onam oldida.  
To'yga men ham borardim,  
Yomg'ir yog'ib qoldi-dal



## BAYRAM HAZILI

Bu momo Havodan meros bir  
odat:  
Ushlasa gul ushlar qo'lini  
faqat,  
O'psa faqat yomg'ir o'par yuzlarin,  
Kuyovga chiqmagan o'zbek qizlarin.

Bu momo Havodan ularga odat:  
Nozik belidagi sochin bir  
savat,  
Silasa, shamollar silaydi faqat,  
Kuyovga chiqmagan o'zbek qizlarin.

Jilmaysa, nur yog'ar gul  
yonoqlardan,  
Sir yashirar hatto,  
qizg'aldoqlardan,  
Behuda izlamang xilvat  
bog'lardan,  
Kuyovga chiqmagan o'zbek  
qizlarin.

Yuragi bir daryo mehri ulug'vor,  
Dugonasi hayo, sinfdoshi or,  
Ayting, farishtadan nima  
farqi bor  
Kuyovga chiqmagan o'zbek  
qizlarin?



Bardoshi oldida tog' – oddiy  
tuproq,  
Ular etagida jannat bir qadam.  
Beayb parvardigor degandek  
biroq,  
Yo'q emas kichkina kamchiligi  
ham.

Sevadi.  
Kutadi.  
Qiladi alam,  
Ammo dorga osing, aytmas  
birovga.  
Sevishini aytmasa sevganiga  
ham,  
Tegi-i-ib ketaverar boshqa  
kuyovga!..







\*\*\*

Oq o'rikning gullari,  
Suvga tushgan kunlari,  
Ketdi bizni kuydirib  
Hamma qizning dilbari.

Oq o'rikning novdasi,  
To'y – bu umr savdosi.  
Ketdi bizni kuydirib,  
Hamma qizning erkasi...

Yuragim g'ash, qo'y, bahor –  
Menga bog'da nima bor?  
Ketdi dilni kuydirib  
Hamma qizdan go'zal yor.

Oq o'rikning tagida,  
O'y suraman gohida  
O'rtar ekan odamni,  
Ilk sevgi alohida.





## NA QILAY?..

Ko'zimdagi yoshlar tugar ham,  
Yovlar otgan toshlar tugar ham,  
Kakligi jim, qumrisi mulzam,  
Bulbuli yo'q bog'ni na qilay?

Dunyo to'qir har kun bahona,  
Kunlaring qaytgay deb shohona.  
Peshona shu ekan, peshona.  
Devonaman, sog'ni na qilay?

Goh oydin, goh oysizdir samo,  
Hayot jumboq, hayot muammo.  
Shukr, sozim bag'rimda ammo,  
Zoye ketgan chog'ni na qilay?

To'rg'ayni sor olganin ko'rdim,  
Mayna g'ijjak chalganin ko'rdim,  
Qo'shiq yetim qolganin ko'rdim.  
Ko'ksimdagi dog'ni na qilay?

Sen bor – men qad ko'targan edim,  
Elim, sen bor, ko'kargan edim.  
Uzrim bilan qoshingga keldim,  
Sensiz oltin tog'ni na qilay?..



\*\*\*

Eslamasang ham meni  
Qanday qilib tonaman.  
Yillar o'tar-u, seni  
Unutolmay yonaman.  
Mayli, men-ku, qon dilim,  
Baxtlimisan, sevgilim?..

Bahor kelsa bog'larga,  
Sevishganlar sig'maydi.  
Mening kuygan ko'ksimda  
Qizg'aldoqlar yig'laydi.  
Mayli, men-ku, qon dilim.  
Baxtlimisan, sevgilim?..

Mendan kechib ketganding,  
Mayli, joning sog' bo'lsin.  
Mening ko'nglim cho'ksa ham,  
Sening ko'ngling chog' bo'lsin.  
Mayli, men-ku, qon dilim,  
Baxtlimisan, sevgilim?

Qayda bo'lma, omon bo'l,  
Omon bo'l-u, bilib ol –  
Sening umring uzun yo'l,  
Mening umrim bir savol:  
Mayli, men-ku, qon dilim,  
Baxtlimisan, sevgilim?!



## ZEBIJON

Yalangoyoq yoshligimni eslasam jim,  
Ko'zlarimga surgim kelar burda nonni.  
Qornim nonga to'ymasa ham poshsho ko'nglim:  
Zebijonni suyar edim, Zebijonni...

Kapalak ham siylar gulning suyganini,  
Shabnamlarning ko'rdim tongga iyganini.  
Kim bilardi kambag'alning kuyganini,  
Zebijonni suyar edim, Zebijonni...

Suyganimni bir boyvachcha tortib oldi,  
Tillo berdi, tilloga ot sotib oldim.  
Tulporimning tuyog'iga yotib oldim,  
Zebijonni suyar edim, Zebijonni...

Otim bilan gaplashardim odamdayin,  
Men bir qashshoq o'g'ilman, u – otamdayin.  
Yig'lar edim yollarini silab mayin,  
Zebijonni suyar edim, Zebijonni...

Kimga aytib yana kimga yig'lay borib,  
Umrim o'tdi yolg'iz unga ko'nglim yorib.  
Otim mendan g'arib-u – men undan g'arib.  
Zebijonni suyar edim, Zebijonni...

Oy yuzli yor oydek o'g'il tug'gan oqshom  
Madaminbek tortib oldi otimni ham.  
Dardimga dard qo'shildi voh, g'amimga g'am,  
Zebijonni suyar edim, Zebijonni...



\*\*\*

Bisotimni bog'da bir hilol  
Kapalakka almashaman men.  
Hayotimni ko'kdagi zilol  
Kamalakka almashaman men.

Yog'dularga cho'milgan shahar  
Betonlari biqinni chaqar.  
Uyim qasr bo'lsa ham agar,  
Guvalakka almashaman men.

Shoirlikni suymaydi jinim,  
Menga havas qilmagin, inim.  
Shuhratimni totli bir tilim  
Handalakka almashaman men.

Qo'shiqlarim bo'lib ovoza,  
Yurtda mashhur emishman toza!..  
Barcha yozgan she'rim bir kosa  
Sumalakka almashaman men.



## SEVAR EKAN...

Bilardim deb aytdi u,  
Bilar ekan qizlar ham.  
Kulardim deb aytdi u,  
Kular ekan qizlar ham.

Sinardim deb aytdi u,  
Sinar ekan qizlar ham.  
Sezardim deb aytdi u,  
Sezar ekan qizlar ham.

Kutardim deb aytdi u,  
Kutar ekan qizlar ham.  
Kuyar ekan, tunlar qon  
Yutar ekan qizlar ham.

Men esa... men bilmasdim,  
Bilganimda kulmasdim,  
Sira parvo qilmasdim:  
Sevar ekan qizlar ham!..



## NASIBA

Kun tegmagan bo'yingizda tilla marjon,  
Qaqshatdingiz qoshingizni suzu-suza.  
Ay, birovning nasibasi – Nasibaxon,  
Ajrallishdik, endi qandoq qilavuz.

Nima bo'lsa bo'ldi endi, ey jonajon,  
Peshonadan ko'ramiz-da, peshonadan.  
Xayol bilan yo'lga chiqib Farg'onadan,  
Ko'changizga har kuni bir kelavuz...

Gunoh bizda, nolish yo'q siz Guloyimdan,  
G'ishtlar ko'chgan qumdan qurgan binoyimdan.  
Engak quchib, endi faqat xudoyimdan,  
Bizga to'zim, sizga umr tilavuz...

Yor degani yoningda yursa kuymanib,  
Suymasang ham qolar ekansan o'rganib.  
Faqat hanuz Toshkan desa jon o'rtanib,  
Bildirmasdan tunlar yig'lab olavuz.

Yillar yo'nar, yillar ko'mar dilda dardni,  
Rangi ketar har qandayin muhabbatni.  
Unutgansiz siz, albatta, Muhammadni –  
Bunisini o'zuvuzam bilavuz!

Kun tegmagan bo'yingizda tilla marjon,  
Qaqshatdingiz qoshlaringiz suza-suza.  
Ay, birovning nasibasi, Nasibajon,  
Ajrallishdik, endi qandoq qilavuz.





## EKOLOGIYA-79

Yerda yurganim yo'q,  
Ko'kda uchyaqman.  
Tunda sevgilim deb  
Tutun quchyaqman.

Men gul uzganim yo'q,  
Yig'ganim og'u.  
Men suv ichganim yo'q,  
Zahar ichyaqman...

O'zimniki emas  
O'z uyim tomi,  
Qizil kerosingul –  
Ko'chamning nomi.

Bir tom,  
Bir darvoza,  
Bitta devorman,  
Qo'shnim ichgan kecha  
Men ham bedorman.

Ko'chaga chopaman,  
Ichim yonadi,  
Kecha qaymoq yalab  
Tilim qonadi.



Portlovchi moddaga  
O'xshar olmalar,  
O'rik yeb, o'rikka  
Kim ishonadi?

Qani, nokingizdan  
Torting, otaxon,  
Ko'zim xiralashgan,  
Yuragim yomon.

Qora gilosmi bu  
Rastangizdagi,  
Yoki jigarimdan  
Oqayotgan qon?..

Ko'kda uchoq uchsa  
Tovonim titrar,  
Tushimga qizlarmas,  
Kirar gibridlar.

Shunday uzun qo'lim  
Qoshimga yetmas,  
Shunday katta burnim  
Bilmaydi hidlar.



Barcha xislatimni  
Sanab o'tirmay,  
Bir kun yasholmayman  
Yolg'on gapirmay.

Yigirmanchi asr,  
Gapir-chi, inim,  
Nahot xushomadsiz  
O'tmasa kunim?..

Boqib sildan zahil  
Dalalarimga,  
Ko'milaman unsiz  
Nolalarimga.

Men-ku o'ttizdayoq  
Ne bo'lsam bo'ldim,  
Ammo, achinaman  
Bolalarimga!

Taraqqiyot,  
Toshdan asab bo'lsaydi,  
Yurakni temirdan yasab bo'lsaydi,  
Qaniydi, o'kinch ne, bilmasa ko'ngil,  
Qaniydi, she'r yozmay yashab bo'lsaydi.





\*\*\*

Sukunatga cho'milmish borliq,  
Qor ostida bog'lar ham jimdir.  
Koyimaslar aytsam gar qo'shiq,  
Aytmasam ham mening ishimdir.

Uyqudadir yulduzlar ham jim,  
Tonggi shirin uyquda bari.  
Dushmanlarim uyquda, do'stim.  
Halovatda, tashvishdan nari.

Oyday to'lib endi lo'ppi yuz,  
Firoqida kuyib yurganim.  
Qachonlardir meni suygan qiz,  
Qachonlardir ko'ngil berganim,  
Sen ham balki jim uyqudasan.

Sukunatga cho'milmish borliq,  
Qor ostida bog'lar ham jimdir.  
Bezovtaman, yolg'iz men dovdur,  
Ko'krak cho'ntak ostida kimdir...



## GO'ZALLAR

Go'zallarim, go'zal aldaysiz,  
Go'zal hatto yolg'oningiz ham.  
Go'zal – ko'ngil qoldirmog'ingiz,  
Go'zal – ko'ngil olganingiz ham.

Olamda yo'q Sizdek ovvora,  
Bechoralar ichra bechora.  
Go'zal, yo'ldan urib ming bora,  
Go'zal, yo'lga solganingiz ham.

Go'zal, boshda suyib-siypalab,  
Ko'ngilning bor mulkini talab,  
Avval jonni qiyma-qiymalab,  
Go'zal, so'ng uyalganingiz ham.

Ko'zlarim-ku ko'zingiz izlar,  
Ammo, ko'rib yuragim muzlar.  
Go'zal, tunda quchib, kunduzlar  
Tanimasdan qolganingiz ham.

Bir boqsam xush – majnuntoldaysiz,  
Zaifa-yu bechoraholdaysiz,  
Jodu bilan payt poylaysiz,  
Go'zallarim, go'zal aldaysiz!



## YIG'LAB TURING

Egar bo'ldik egilmagan boshimizni,  
Tandin bu jon ketmasmidi siz ketguncha.  
Aldamchi deb atamasman aslo Sizni,  
Qiz bolaning va'dalari bo'y yetguncha,  
Ko'ngil uchun yig'lab turing to'y o'tguncha.

Bo'y yetgan qiz – uchirma qush, uchar ketar,  
Bir kun suyib begonani quchar – ketar,  
Erta ismim yodingizdan o'char ketar.  
Qiz bolaning va'dalari bo'y yetguncha,  
Ko'ngil uchun yig'lab turing to'y o'tguncha.

Qizlar ko'ngli bahor bilan yoz o'rtasi,  
Gohi alam, gohi araz-noz o'rtasi,  
Qum qo'rg'ondek omonat bu ishq o'rdasi.  
Qiz bolaning va'dalari bo'y yetguncha,  
Ko'ngil uchun yig'lab turing to'y o'tguncha.

Ayting-ayting jo'ralarim kulmasinlar,  
Tili uzun shum yangalar bilmasinlar,  
Ko'cha-ko'yda meni ermak qilmasinlar.  
Qiz bolaning va'dalari bo'y yetguncha,  
Ko'ngil uchun yig'lab turing to'y o'tguncha!



## NIMA QILAY?

Ozodajon, o'zing aytgin, ozodmisan?  
Dunyo obod bo'lmadi, sen obodmisan?  
Ko'ksimdagi sevinchimsan, faryodimsan,  
Senga Oysha bibilarning baxtin tilay,  
Muhammadman – payg'ambarmas, nima qilay?

Oy yuzingdan to'kiladi nomsiz ohlar.  
Bo'yindagi sadafmi-yo ko'zmunchoqlar?  
Qo'ying to'la bo'lsin deya qo'zichoqlar,  
O'tsam deyman bir to'p bolang baxtin tilay,  
O'zim birov bolasiman, nima qilay?

Shirin-shirin qarashlaring menga jannat,  
Mening uchun seni yaratganga rahmat,  
Yuragingni menga qaratganga rahmat.  
Balki, mening baxtim sensan, qaydan bilay?  
Sen arzanda, men arzanda – nima qilay?

Kapalakday aylan o'zing boshlarimdan,  
Uzilmasin barmoqlarim qoshlarimdan,  
Bino bo'lding ko'zimdagi yoshlarimdan,  
Yorijonim, qanday yig'lab, qanday kulay,  
Jonni ikki bo'lib bo'lmas, nima qilay?

Onam aytar: bu dunyoda bola aziz,  
Bolam-ku bol, menga dard-u nola aziz,  
Sochlaringdan to'kilgan bir tola aziz,  
Umrin o'tsin sochlaringni silay-silay,  
Bir Mashrabi devonangman, nima qilay?



## MUNDARIJA

Bizdan ozod Vatan qoladi .....	3
„Na yerda gavharsan, na ko'kda hilol“ .....	4
Vatan madhi.....	5
Bolajonlar .....	6
Quyoshistonim .....	7
Chamanistonim .....	8
Yangi yil kechasi.....	9
O'zbekiston polvonlariga .....	11
Xorijdagi o'zbek qo'shig'i .....	13
Onajonlar.....	14
Muhammadga maktub .....	15
Otajon .....	16
Onajon .....	18
So'z qoladi .....	19
Ayrlmasin .....	20
Turnalar.....	21
Xalqona.....	23
Do'st .....	25
Toshkent.....	26
Lola, lola .....	28
Armon .....	30
„Uydan ketdim“ .....	31
Iqrar .....	32
Sevmay yashash og'ir .....	33
O'p meni.....	34
She'ringa.....	35
Sanam .....	36
Qaldirg'och.....	37
Zaynab qo'shig'i.....	38
Armon .....	39
Hamma xursand .....	40
„Chirqiragan chumchuqlar“ .....	41

Iftixor.....	42
Surayyo .....	43
Alyor .....	45
„Yuzing o'xshar hilolga“ .....	46
Mahzuna .....	47
„Meni tashlab ketdi guloyim“ .....	49
Qiz qo'shig'i.....	50
Bor bo'l.....	52
Bobur nidosi.....	53
Tillo baliq.....	54
Qiz qarq'ishi.....	55
Yig'lab turing.....	57
Qiz arazi.....	58
Ko'rishmadik .....	60
Netarman.....	61
Assalom.....	62
Beshik to'y .....	63
Sahar sabolari .....	64
„Ikki yorti bir bo'lmadik“ .....	65
Bibijon.....	66
Oltin sandiq .....	67
„Yo'liqqanga yoshing to'kmagil, yurak“ .....	68
Tazarru.....	69
Terma.....	70
Dunyoyi dun.....	72
„Jamolin ko'rmoq o'yida ul ko'zi mastonani“ .....	73
To'yona.....	74
Dunyo .....	75
Sevgi, sendan qo'rqaman .....	76
Qiz qo'shig'i .....	77
Niyat .....	78
Zaynab nolasi.....	79
Komila qiz.....	80
Binafsha.....	81
Non kulcha.....	82
Cho'loq turna .....	83
„Kerak bo'lsa...“ .....	84
Vido.....	85
Otajonlar .....	86



Talabalik .....	87
Laylakqorlar yoqq'ganda .....	88
Tavallo .....	89
Yoshlik .....	90
Navro'z tilaklari .....	91
Ota yig'isi.....	92
Tilla baldoq.....	93
Elim .....	94
Seni yaxshi ko'raman .....	95
Qizlarxon.....	96
Oshiq dilim .....	97
Vatan .....	98
Ko'zmunchoq .....	100
Istak .....	101
Ko'ngil qo'shig'i .....	102
Bulut .....	103
„Qo'lim tegmay...“ .....	104
„Bir kuni“ .....	105
To'y kechasi .....	106
Bayram hazili.....	107
„Oq o'rikning gullari“ .....	109
„Na qilay?..“ .....	110
„Eslamasang...“ .....	111
Zebijon.....	112
„Bisotimni...“ .....	113
Sevar ekan .....	114
Nasiba.....	115
„Ekologiya-79“ .....	116
„Sukunatga cho'milmish borliq“ .....	119
Go'zallar .....	120
Yig'lab turing .....	121
Nima qilay.....	122

SHE'RIYAT DURDONALARI

MUHAMMAD YUSUF

**AYTILMAGAN QO'SHIQLARIM...**

*She'riy to'plam*

„Ziyo nashr“  
nashriyoti

Toshkent — 2019

Muharrir  
Badiiy muharrir  
Musahhih  
Sahifalovchi

*Abdurahmon Jo'rayev  
Bahodir Ibrohimov  
Oybek Haydarov  
Habibulloh Haydarov*

Nashriyot litsenziyasi AA № 0008, 27.03.2019  
11.10.2019 da bosishga ruxsat etildi. Qog'oz bichimi 84x108 <sup>1</sup>/<sub>32</sub>.  
Ofset qog'ozi. „Times“ garniturasida ofset usulida bosildi.  
Shartli bosma tabog'i 6,72. Nashriyot-hisob tabog'i 4,0.  
Adadi 10000 (2-zavod 5000). Shartnoma № 18–19.  
Buyurtma raqami 933.

„Ziyo nashr“  
Mas'uliyati cheklangan jamiyat  
Toshkent shahri, Uchtepa tumani, 23-mavze, 42-uy.

«Credo Print» MChJ  
kitob fabrikasida chop etildi.  
Toshkent sh., Bog'ishamol k. 160.  
Tel.: 71 234-44-01/05  
[www.credoprint.uz](http://www.credoprint.uz)

**Yusuf, Muhammad.**

Yu-91 **Aytilmagan qo'shiqlarim.** [Matn]: She'riy to'plam / M. Yusuf. – T.:  
„Ziyo nashr“ nashriyoti, 2019. – 128 b.

ISBN 978-9943-5706-0-3

**UO'K: 821.512.133-1**  
**KBK 84(5O')6**